

81.633.1

Y 18

Yangi o'zbek alifbosi va imlosi




TF0000011847

Toshkent — 2005

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

Yangi o'zbek alifbosi va imlosi



кутубхона

Toshkent – 2005

Nizomiy nomidagi TDPU o'zbek tili va adabiyoti fakulteti o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasidan tavsiya etilgan

Tuzuvchilar: p.f.n, dotsent. **R. Abdulahadova**
katta o'qituvchi **D. Jumashev**
o'qituvchi **K. Do'sanov**

Taqrizchilar: p.f.n, dotsent. **R. Inog'omova**
f.f.n, dotsent **T. Shermurodov**

Mas'ul muharrir: f.f.d., professor **B. To'xliyev**

Ushbu metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2001 - yil 27- dekabrda Ilmiy Kengashining 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu qo'llanma akademik litsey va kasb-hunar kolleji hamda oliy ta'limning bakalavriyat bosqichi talabalariga, shuningdek, lotin alifbosi va imlosi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

SO'Z BOSHI

1993-yil 2-sentabr XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida Respublikada "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risi"da Qonun qabul qilindi va Qonunga 1995-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ayrim o'zgarishlar kiritildi.

Yangi alifboda 26 ta harf, uchta harflar birikmasi o'z ifodasini topgan. 1995-yil 24-avgustda esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlandi. Ushbu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan "Yangi o'zbek alifbosi va uning imlo qoidalari"ni bilish va hayotga tatbiq etish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Ushbu metodik qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlari 1-bosqich talabalari va litsey, kollej o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Metodik qo'llanmaning asosiy vazifasi talaba va o'quvchilarga lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalari yuzasidan qisqa vaqt ichida to'liq va mukammal bilim berishdir. Metodik qo'llanmada yangi alifbo va uning imlo qoidalarini o'rganishning eng qulay usullaridan foydalanishga harakat qilindi. Metodik qo'llanmada har bir mavzuni puxta o'zlashtirish uchun xilma-xil mashqlar berildi; ko'rgazmalilikdan keng foydalanildi. Shuningdek, talaba va o'quvchilarning mustaqil fikr qilishlari, mustaqil ishlashlari uchun ham turli topshiriqlar berildi.

Ushbu o'quv qo'llanma 2003–2004 o'quv yilida qayta ko'rib chiqildi, o'qituvchilarning fikr–mulohazalari inobatga olindi, ayrim o'zgarishlar kiritildi, to'ldirildi, o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun bir qancha matnlar kiritilib, qayta nashrga tayyorlandi.

Metodik qo'llanmani yozishda;

1. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari", "O'zbek tilining imlo lug'ati", (Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyev); "O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi".

2. N.Mahmudov "Yozuv tarixidan qisqacha lug'at",

3. A.Aliyev, K.Nazarov "O'zbek tili ma'lumotnomasi",

4. S.Akobirov, T.Aliqulov va boshqalar. "O'zbek tilining izohli lug'ati".

5. Y.Abdullayevning "Hamrohim".

6. Yangi o'zbek alifbosi kursi uchun tuzilgan dasturlar va metodik qo'llanmalardan foydalanildi.

O'zbek yozuvi tarixi

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir.

(O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiya"sining 4-moddasi)

"O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir"

(*"Til haqidagi Qonun"*ning 2-moddasi)

O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda bo'lgan Oliy Kengashi sessiyasida o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili ekanligi haqida Qonun qabul qilindi.

1991-yil 31-avgustda esa O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat ekanligi haqida Qonun qabul qildi.

Mustaqillik... Bu hayotimizdagi buyuk o'zgarish... Xalqimizning ma'naviy uyg'onishidir.

Ona tilimiz mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili darajasiga ko'tarildi. Ona tilimizning azaliy haq-huquqlari tiklandi, haqiqiy o'zbekona urf-odatlarimizning hayotda o'z o'rnini olayotgani, qadriyatlarimizning ham o'z o'rnini topayotgani hayot taqozosi, xalqlar orzusidir.

O'zbek xalqining tili, yozuv madaniyati tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Tilning rivojlanishi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda o'z aksini topadi.

Yozuv - biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so'z, bo'g'in, tovush)ni ifodalovchi belgilargina emas, balki eng qadimgi piktografik (rasm, surat yozuvi) va ideografik (shartli belgilar – to'liq tushunchalarni ifodalagan) shakllarni ham o'z ichiga oladi.

Kishilik jamiyatining ilk davrida dastlab surat yozuvi paydo bo'lgan. Jamiyat oila-urug'lardan tashkil topgan davrda og'zaki nutq yordamida fikr almashilgan.

Xabarni uzoqqa yetkazish ehtiyoji tug'ilgach, yozuv paydo bo'lgan.

O'zbeklar O'rta Osiyodagi boshqa turkiy xalqlar bilan birga xorazmiy, oromiy, sug'diy, runiy, uyg'ur, arab, lotin va rus (kiril) yozuvlaridan foydalanib kelganlar.

Kishilar orasidagi munosabatda til eng zarur vosita bo'lsa, yozuv ham shunchalik ahamiyatga molikdir, chunki kishilar yozuv vositasi bilan fikrlarini, maqsadlarini boshqalarga yetkazadilar. Yozuv tufayli qadimgi

kishilarning, ajdodlarimizning dono fikrlari bizgacha yetib kelgan. Demak, yozuv insoniyat madaniyati taraqqiyotida katta ahamiyatga ega.

VII-VIII asrlarda arablar O'rta Osiyoni zabt etishi bilan xalqlar orasida islom dini va madaniyati keng tarqaldi. Eski turkiy yozuv o'rta arab alifbosi ishlatila boshlandi.

O'zbekiston hududida yashagan qabila va elatlarning so'zlashgan tili va ishlatgan yozuvi biz uchun g'oyat katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining ming yildan ortiq davr ichida yaratgan adabiy, tarixiy, umuman madaniy merosi arab alifbosi asosidagi yozuvda bizgacha yetib kelgan.

Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi tilimiz tabiatiga unchalik mos bo'lmagan murakkab va qiyin o'rganiladigan yozuv tizimi bo'lishiga qaramay, islom tarqalgan joylarda necha asrlar davomida ishlatilib kelingan.

Sho'ro davrida bu yozuv tizimi 13 yil ishlatildi. 1922-yilda arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi isloh qilindi (ya'ni unililar tushirib yozilar edi, qo'shib yoziladigan bo'ldi), lekin bu holat ham talabga yetarli darajada javob bermadi.

Bokuda bo'lib o'tgan turk tilshunoslari qurultoyi ilmiy tekshirishlar natijasida turk ellari uchun lotin alifbosining arab alifbosidan yaxshiroq yaratilganligi to'g'risidagi ilmiy qarorini bergan edi. Bu muhim qaror butun turk millatlariga, turk hukumatlariga yashin kabi ta'sir etdi!¹

1929-yilda o'zbek yozuvi yangi lotinlashtirilgan alifboga o'tkazildi.

Lotin alifbosi qadimgi Rimda g'arbiy yunon yozuvi asosida paydo bo'lgan miloddan avvalgi 2-asrda barqarorlashgan.

VIII asrdan boshlab lotin alifbosi G'arbiy Yevropadagi ko'pgina xalqlarning yozuv tizimlari uchun asos bo'ldi.

Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida, jumladan, O'zbekiston, Litva, Latviya, Estoniya, Kareliya xalqlari lotin grafikasi asosidagi alifbodan foydalanadi².

Ushbu alifbo anchagina kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramay, o'zbek xalqining savodxonlik darajasini oshirishda ahamiyati katta bo'ldi.

Bu alifbo 1940-yilgacha qo'llanildi. O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi 1940-yil 8-may qarorida o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan kirill alifbosi asosidagi yangi alifboga ko'chirish to'g'risidagi qonun qabul qilindi³.

¹Y. Abdullayev "Hamroh" T. "O'qituvchi" 1996. 5-bet

² O'zbekiston Respublikasi qomusi 6-tom 298-bet.

³ A. Aliyev, K. Nazarov "O'zbek tili ma'lumotnomasi", T "Fan" 1992

Kirill (slovyan) yozuvining Rusiyada paydo bo'lishi X asrning oxiri, (taxminan 988-yil) xristianlikning qabul qilinishi bilan bog'liq deb qaraladi.

Haqiqiy slavyan alfavitining paydo bo'lishini aka-uka Kirill (asli nomi Konstantin Filosofov) va Mifodiylar nomi bilan bog'laydilar. Bunga, ayniqsa, Kirillning roli katta bo'lib, u 863-yilda tartiblashtirilgan ilk slavyan alfavitini ishlab chiqadi.

Yozuv davlat islohotlari asosida rivojlanib bordi. Islohotlarining eng muhimlari: 1707-1710-yillardagi Pyotr islohoti va 1917-1918-yillardagi islohot bo'ldi.

Islohotlar natijasida rus yozuvi ko'p jihatdan o'zgardi, takomillashdi. Hozirgi rus yozuvidagi 33 ta harfning 6 tasi unilarni ifoda etadi, 4 tasi (е, ё, ю, я) bo'g'in ifodasi uchun qo'llanadi, 2 tasi (ѣ, ѥ) tovush ifodalamaydi, qolganlari undoshlarni ifodalaydi¹.

O'zbekiston Respublikasida 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi va bu qonun tezda hayotga joriy etila boshladi.

Ushbu qonun asosida o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari ishlab chiqildi.

Bu davrga kelib yozuvda zamonaviy texnika vositalaridan keng foydalanish yuzasidan ayrim muammolar kelib chiqdi. Buni hisobga olib, ba'zi harflarning shakliga o'zgarishlar kiritildi.

Ushbu masala yuzasidan 1995-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi maxsus qaror qabul qildi.

1-jadval

1993-yil 2-sentabr		Kirill yozuvida	1995-yil 6-may	
С с	С с	Ц ц	С с	Ѕ ѕ
И и	Ѕ ı	И и	Ѕ ı	Ѕ ı
Q q	Q q	К к	Q q	Q q
З з	З з	З з	З з	З з
Ч ч	Ч ч	Ч ч	Ch ch	Ch ch
Г г	Г г	Г г	Г г	Г г
Ж ж	Ж ж	Ж ж	Ж ж	Ж ж
Н н	Н н	Н н	Ng ng	Ng ng
О о	О о	У у	О о	О о
Ш ш	Ш ш	Ш ш	Sh sh	Sh sh

¹ N.Mahmudov "Yozuv tarixidan qisqacha lug'at – ma'lumotnoma" "Fan" 1990

Yangi o'zbek alifbosida 26 harf, 3 ta harflar birikmasi (sh, ch, ng) bor. Demak, lotin-o'zbek alifbosi 29 harfdan iborat.

Yangi o'zbek alifbosiga o'tish maktablarda 1996-97-o'quv yilida boshlanib 2005-yil 1-sentabrda to'liq o'tish mo'ljallangan.

2-jadval

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi			
Bosma	Yozma	Bosma	Yozma
A a	<i>A a</i>	Q q	<i>Q q</i>
B b	<i>B b</i>	R r	<i>R r</i>
D d	<i>D d</i>	S s	<i>S s</i>
E e	<i>E e</i>	T t	<i>T t</i>
F f	<i>F f</i>	U u	<i>U u</i>
G g	<i>G g</i>	V v	<i>V v</i>
H h	<i>H h</i>	X x	<i>X x</i>
I i	<i>I i</i>	Y y	<i>Y y</i>
J j	<i>J j</i>	Z z	<i>Z z</i>
K k	<i>K k</i>	O' o'	<i>O' o'</i>
L l	<i>L l</i>	G' g'	<i>G' g'</i>
M m	<i>M m</i>	Sh sh	<i>Sh sh</i>
N n	<i>N n</i>	Ch ch	<i>Ch ch</i>
O o	<i>O o</i>	Ng ng	<i>Ng ng</i>
P p	<i>P p</i>		

Ushbu jadvalda bosma, yozma, bosh va kichik harflarning ifodalanishi: yozma harflar (bosh va kichik)ning bog'lanishi o'z ifodasini topgan.

Amaliy mashg'ulot

1-topshiriq

Jadvaldagi harflarni yuqoridagi kabi yangi alifbo tartibida daftaringizga yozing. Har bir harf yozilishini mashq qiling.

2-topshiriq

Alifbo tartibida harflarni bosma va yozma shaklda yozishni mashq qiling. Yozma shakldagi harflarning bog'lanishlariga e'tibor bering.

3-topshiriq

Alifboda berilgan harflar bilan bir va ikki bo'g'inli so'zlar yozing.

4-topshiriq

Ism-familiyalaringizni husnixatda yozishni mashq qiling.

5-topshiriq

Yangi o'zbek alifbosini yod oling.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari

Unlilar imlosi

Nutq tovushlari tilshunoslikning fonetika bo'limida o'rganiladi.

Nutq tovushlari nutq a'zolari; o'pka, kekirdak, tovush paychalari, og'iz bo'shlig'i, til, yuqori va pastki lab, yuqori va pastki tishlar, burun bo'shlig'i ishtirokida hosil bo'ladi.

Demak, tovush nutq a'zolarining talaffuz vaqtidagi faoliyati natijasida vujudga keladi.

Nutq tovushlarining tabiatdagi boshqa tovushlardan asosiy farqi ularning kishilar o'rtasida nutqiy aloqa qilish vositasi bo'lib xizmat qilishidir.¹

Tovush bilan harf ham bir-biridan farq qiladi. Harf tovushning yozuvdagi shartli belgisidir.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tovushlar ikkiga bo'linadi: unli va undosh tovushlar.

Hozirgi o'zbek tilida unli harflar oltita. Bular A a, O o, I i, U u, O'o', E e. Unli harflar uch tomonlama tasnif qilinadi:

3-jadval

Tilning vertikal harakatiga ko'ra	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Lablarning ishtirokiga ko'ra	
	Old qator	Orqa qator	Lablanmagan	Lablangan
Yuqori (tor) unlilar	I i	U u	Lablanmagan	Lablangan
O'rta (keng) unlilar	E e	O'o'	Lablanmagan	Lablangan
Quyi (keng) unlilar	A a	O o	Lablanmagan	Lablangan

Amaliy mashg'ulot.

1-mashq. Unlilarni bosma, yozma, bosh va kichik harflarda bir qatordan to'g'ri va chiroyli yozing.

¹ Sh. Shoabdurahmonov, va b "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T. O'qituvchi" 1980.

2-mashq. O'qing, unilarning tagiga chizing va og'zaki tahlil qiling. So'zlarni bo'g'inlarga bo'ling.

Bilimni buyuk bil, uquvni **ulug'**,
Shu ikkov ulug'lar kishini **to'liq**.

A a unlisi

1) **A a** unlisi *ona, aziz, azim, tog'a, avlod, avzo, adolat* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash ushuni qo'llaniladi;

2) *baho, bahona, bahavo, davo, vafu, vatan, gavhar* kabi so'zlarda esa **a o** tarzida talaffuz etilsa ham **a** shaklida yoziladi.

1-mashg'ulot. So'zlarni yozishda husnixatga e'tibor bering, a unlisining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Asr, asab, avval, asir, aziz, anor, aziz, arafa, ahvol, jahon, dang'illama, javob, javon, javohir, vafoli, vatandosh, vahima, gavda, gavjum, davlat, davr, davra, dabdaba, jadal, zavq, dadil, daraxt, zamondosh.

2-mashg'ulot. Nuqtalar **a** yoki **o** unlisini qo'yib so'zlarni lotin-o'zbek yozuvida yozing.

...влод, ...влиё, ...ждарҳо, арм...н, бан...гоҳ, бат...м...м,
б...ҳодир, б...ҳо, б...ҳ...м, баҳ...в..., б...ҳона, б...ҳ...р, бед...в...,
в...ж...ҳ...т, в...ҳима, в...йбўй, в...сита, ж...м...кор, з...мон,
з...г...ра, зўр...в...н, к...м...лот, л...в...зим, м...вл...но, м...риф,
м...ш.

Topshiriq. **o** talaffuz qilinib, **a** yoziladigan so'zlarga misollar toping va husnixatda yozing.

3-mashg'ulot. So'zlarni yozing a unlisining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

1. ana, aka, ada, alla, alanga, alp, ariq, arpa, archa, dacha, dalda.
2. bahor, navbat, xavf, havaskor, davlat, bahona, gavhar, davomat.
3. baho, navbat, tamom, nahor.

4-mashg'ulot. Husnixat mashqi.

Axloq

Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur.

Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur. Bir kishi o'zidan

xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqrar qilub, tuzatmakka sa'y va qo'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur...

Oo unlisi.

Oo unlisi orqa qator, quyi keng, lablangan unli tovush bo'lib, quyidagi kabi so'zlarda qo'llaniladi: *ona, opa, ota, ovoz, ovqat, odat, ozoda, olma* kabi. Shuningdek, *orden, order, tonna, boks, aerodrom, aeroport, aksioner, velosiped, vodoprovod* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

5-mashg'ulot. Oo (o'zlashma so'zlarda) O'o' kabi talaffuz qilinadigan unilarning tagiga chizing, imlosiga e'tibor bering.

Anor, albom, arslon, boks, ma'no, bahodir, olxo'ri, arxeolog, vagon, baho, voleybol, bozor, botir, gazoprovod, vertolyot, dono, da'vo, diplom, doira, murod, direktor, doka, zontik, dollar, oltin, dori-darmon, zoologiya, import, yotoq, ijod, karton, jome, ijodiy, imlo, kino, optika, orfografiya, insof, insho.

6-mashg'ulot. Tushurib qoldirilgan unli harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlarni ko'chiring, o unlisining aytilishi va yozilishini tushuntiring.

Ost...na, d...ston, d...tsent, b...ho, osm...n, k...nfet, b...hona, t...lqon, m...t...tsikl, g...vjum, x...lva, v...kzal, d...v...mat, x...tira, v...d...provod, d...vron, v...leybol, zo'r...von, t...nna, h...sh...rot, r...man, n...vbat, k...mbayn, metr...

7-mashg'ulot. Matnni yozing o unlisining tagiga chizing, talaffuzi va imlosini tushuntiring.

O'n bir ishqiboz

O'rta asrlarda futbol o'yini keng tus oldi. Ba'zan har bir tomondan besh yuz va undan ko'proq kishi maydonga tushar edi. To'pni butun bir shahar bo'ylab ma'lum bir joyga birinchi bo'lib tepgan "komanda" g'olib sanalardi. Ko'p hollarda ur-yiqitlar tufayli qon to'kilishigacha borib yetardi.

Futbolni "jin o'yin" sifatida ingliz qirollari ko'p marta taqiqlaganlar.

Richard Ikkinchi esa 1389-yilda futbol o'ynaganlar uchun o'lim jazosi joriy qilish haqida farmon bergan. Bu jazo ikki yuz yil amal qildi. Lekin o'yin davom etaverdi. Qo'y terisidan tikilib, latta-puttalar

to'ldirilgan to'pni raqib qishlog'ining bozor maydonigacha surib borish g'alaba sharti edi.

XIX asr boshida o'yinni sport iziga solish va ma'lum qoidalar yaratish yo'lida ilk urinishlar, tortishuvlar ko'p bo'ldi.

1863-yilda London shahrida ikki saf futbol tarafdorlari yig'ilib, o'yin qoidalarining o'n uch bandini ishlab chiqdilar.

(“Gulxan” jurnali 1990-yil, 12-son)

I i unlisi

1) *ilk, ilm, ish, bir, bilak*, kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi:

2) oldingi bo'g'inda o' unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida i aytiladi va yoziladi: *o'git, o'yin, o'rim, o'smir, o'chirg'ich, so'lim, so'ri* kabi

8-mashg'ulot. Yozing, i unlisining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

O'git, o'yin, o'kinch, o'ngir, o'nqir-cho'nqir, o'rgimchak, o'rik, o'smir, o'tin, o'tkir, o'tmish, o'ttiz, o'g'il, o'g'ir, bo'g'in, jo'shqin, ko'ngil, ko'prik, ko'rik, mo'min, mo'jiza, po'pisa, po'stin, so'niq, so'rg'ich, to'kis, cho'mich, cho'qqi, qo'rqinch.

9-mashg'ulot Matnni yozing, i unlisining tagiga chizing, talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Ilm

Ilm deb, o'qish va yozishini yaxshi bilish har bir kerakli narsalarni o'rganmoqqa aytiladi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. (A.Avloniy)

10-mashg'ulot. So'zlarni ko'chirib yozing, i unlisining talaffuziga e'tibor bering va tushuntiring.

Tilak, o'rim, o'rinbosar, tikmoq, til, bibi, oyi, o'simlik, tiniq, o'qimishli, o'gir, tinim, pilik, buvi, belgi, o'tinxona, imlo, ilik, pilla, patir, rozi, nihol, qazi, ari, pilla, nishona, imzo, ilk, odmi.

11-mashg'ulot. Matnni kirill-o'zbek yozuvidan lotin-o'zbek yozuviga o'girib yozing, unlilarning talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.

Сиз буни биласизми?

Дарвозабон тўпни қўли билан ушлаш ҳуқуқини 1871 йилда олган. Биринчи халқаро матч 1871 йилда Глазгода

Англия ва Шотландия командалари ўртасида бўлиб ўтиб, унда дуранг – 0:0 ҳисоби қайд этилган. Худди шу йили ҳакамлар ҳуштакдан фойдаланишган. Бунгача улар ўйинни томошабинлар ўтирадиган жойдан кузатишиб, бирон баҳсли вазиятдагина ўйинчиларнинг талабига биноан майдонга чиқишган.

11 метрлик жарима тегиш 1891 йилда жорий этилган.

1904 йили фарангистонлик футболчиларнинг ташаббуси билан халқаро футбол федерацияси ташкил қилинади.

1908 йили Англия терма командаси Олимпия чемпиони бўлади.

U u unlisi

1) *uy, uzr, bu, bulut, bug'doy, jussa, juma, zulf, kuch, kun* kabi soʻzlarda orqa qator, tor unlini ifodalaydi;

2) *hozir, sovundon, qovun, yozuv, zovur, sovut, sovunak (dorivor, o'simlik), sovuq* kabi soʻzlarning oldingi boʻgʻinida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq boʻgʻin boshidagi **y** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

12-mashgʻulot. Yuqoridagi soʻzlarni yozib oling, talaffuzi va imlosidga eʼtibor bering.

13-mashgʻulot. U u unlisi ishtirok etgan soʻzlardan yigirmatasini yozing, talaffuzi va imlosini tushuntiring.

14-mashgʻulot. Husnixat mashqi. Matnni yozing, **u** unlisining imlosini tushuntiring.

Uyat – qonundan kuchli

Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq. Qonun faqat koʻzi tushganda, shubha paydo qilgandagina jinoyatchining qoʻlini ushlaydi, yoʻlini toʻsadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojoʻya ish qilish uchun qoʻl koʻtargani qoʻymaydi. Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib boʻlmaydi. Chunki qonun odobdan tashqarida, uyat esa odamning koʻksida boʻladi.

(A.Qodiriy)

O' o' unlisi

O'o' harfi *o't, o'q, o'zbek, do'ppi, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

15-mashg'ulot. O'o' unlisi ishtirok etgan so'zlardan yigirmatasini yozing, talaffuzi va imlosini tushuntiring.

16-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Yaxshi so'z – jon ozig'i.

Shirin va yaxshi so'zlar bamisoli oqib turgan zilol suvga o'xshaydi. Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerda anvoyi chechaklar unib chiqadi. Ha, darhaqiqat insonning tili shirin bo'lsa, uni katta – yu kichik hurmat qiladi, dardiga quloq soladi. Shirin tillik insonni baxt – u saodatga eltadi. Kishining qalbiga, dil – u joniga ma'naviy ozuqa beradi. Dono xalqimiz "Shirin so'z jon ozig'i", "Shirin taoming bo'lmasa ham, shirin kaloming bo'lsin" – deb bejiz aytmagan. So'zlash madaniyati orqali kishining tafakkuri, odobi, ota – onasi va ustozidan olgan tarbiyasi namoyon bo'ladi. Shuning uchun insonlar yoshlikdan shirinso'zlikka o'rganishlari kerak. Donolar shirinsuxanlikning eng yaxshi alomatlaridan biri rost gapirishdir, kishi rostlikni o'ziga bezak qilib olishi lozim, deydlar.

"So'z aysang rostlikni aylagil odat,
Qidirma rostlikdan yaxshiroq ziynat
Rostlikdan yaxshiroq ziynatni qachon,
Qayda ko'rdi ekan biror bilimdon".

"Odobnoma" Jomiy "Ta'lim va tarbiya" haqida.

E e unlisi

E e harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, poyezd, e'lon, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

Kirill-o'zbek yozuvidagi Э э lotin-o'zbek yozuvida E e kabi ifodalanadi.

Jadvaldagi so'zlarni talaffuz qiling va qiyoslang

4-jadval

E e - (Э э) unlisi		
So'z boshida	So'z o'rtasida	So'z oxirida
emish – эмиш	aerodrom – аэродром	alifbe – алифбе

egiz-эгиз	keldi-келди	jome-жоме
erta-эрта	meva-мева	mavze-мавзе
elak-элак	poema-поэма	mute-муте
elim-элим	poeziya-поэзия	kupe-купе

17-mashg'ulot. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilib o'qing va husnixat bilan yozing.

Elim, feldsher, tobe, erkin, ferma, gerb, festival, fevral, kafe, ketdi, ertalab, eskiz, gektar, general, kerak, mehnat, kecha, kementik, erta, ekran, elma-el, esdalik, epli-sepli, ekin-tikin, terma, aerodrom, kema.

18-mashg'ulot Quyidagi so'zlarni lotin yozuvida yozing.

Эгиз, эди, эмиш, энг, аэропорт, поэзия, эзгу, экран, электр, келди, кетди, поэма, эллик, элчи, эълон, эскиз, эрк, эсмоқ, экспресс, эрта-кеч, эвара, экспорт, эшелон, эҳсон.

Yonma-yon keladigan unlilar imlosi

1) unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** *pianino, diabet, tabiat, dialog, diatez, diametr, diapozitiv;*

b) **io:** *fiziolog, epidemiolog, radiola, militsioner, sotsiolog, stadion, million;*

d) **ai:** *rais, zaif, zaiflashmoq, maishat, zaifa, said, maishiy;*

e) **oi:** *oid, oila, shoir, metalloid, doim, oilaviy, noib, noiloj;*

f) **ea:** *reaktiv, teatr, reaksiya, okean.*

2) **ae, oe** unlilari, so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aeroport, aeroflot, aeroplan, poema, meteor, meteorolog.*

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, saodat, inshoot.*

19-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni talaffuziga va imlosiga e'tibor berib yozing:

taajjub, manfaat, taalluqli, matbaa, taassurot, matbuot, taassuf, muddao, memuar, maorif, maosh, mutolaa.

2 tutuq belgisi imlosi

Tutuq belgisi faqat arabcha o'zlashmalarda qollaniladi:

- 1) *a'lo, ta'zim, shu'la, ne'mat* kabi so'zlarda unidan undoshni ajratib aytish uchun hamda biroz cho'ziqroq talaffuz qilinishi uchun qo'yiladi;
- 2) *mas'ul, san'at, in'om, qat'iy* kabi o'zlashma so'zlarda unlilar o'zidan oldingi undoshdan ajratib talaffuz qilinadi.
- 3) O'zbek tilida shunday so'zlar ham uchraydiki, ular tarkibidagi yonma-yon kelgan *s* va *h* harflari ikki mustaqil tovushni ifodalaydi, chunonchi: *Ishoqov, ashar* (тоиғ), *ashob* (соҳиб сўзининг кўплиги), *mash tortish* (таҳоратда).

Bunday so'zlarda yuqoridagi harflarni *sh* (ш) deb o'qimaslik uchun *s* va *h* harflari orasiga tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoqov, as'har, as'hob, mas'h*.

Eslatma.

Муъжиза муътабар муътадил kabi so'zlardagi *û* harfi yangi alifboda o harfiga ko'chish belgisi (') qo'yib ifodalanadi. Bunday hollarda ikki xil belgi (ko'chish va tutuq belgilari) ketma-ket kelib qolmasligini e'tiborga olib, bunday so'zlar tutuq belgisiz yoziladi: *mo'jiza, mo'tahar, mo'tadil*.

20-mashg'ulot. So'zlarni kirill yozuvidan lotin yozuviga o'giring.

Таъриф, маъюс, таъсир, маърифат, даъво, маънавият, маъно, даъват, машъал, масъулият, ҳайъат, таъминот, эътибор, ваъда, таълим, шуъла, таъкид, китъа, Маъруф, Маъмур, Аъзам, Саъдулла, эътироф, баъзан, даъвогар, яъни.

Е е, Ё ё, Ю ю, Я я harflarining lotin yozuvida ifodalanishi va imlosi.

Kirill-o'zbek yozuvidagi *Е е, Ё ё, Ю ю, Я я* harflari lotin-o'zbek yozuvida ikki mustaqil harflar birikmasi bilan ifodalanadi: *Ye ye, Yo yo, Yu yu, Ya ya*.

Ye ye unlisining ifodalanishi, talaffuzi va imlosi

5-jadval.

Ye ye - (E-e) unlisi		
So'z boshida	So'z o'rtasida	So'z oxirida
yer -ep	felyeton-фельетон	atelye-ателье

yel –ел	pyesa- пьеса	foyye-фойе
yelim-елим	poeyzd-поезд	zoeye-зоё
yetti-етти	Aliyeva-Алиева	televideniye -
yetmish-етмиш	Tojiyeva- Тожиёва	телевидение
yemish-емиш	Valiyeva-Валиёва	

21-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin yozuvida yozing. Husnixatga c'tibor bering.

Ертўла, елим, ем-хашак, снг, енгил, ер-кўк, Қориева, Рўзиева, етук, етиштирмақ, см, емиш, елпигич, егулик, енгмоқ, ер-сув, етар-етмас, безътиборлик, пьеса.

22-mashg'ulot. Nuqtalar o'rniga e yoki ye harflaridan mosini qo'yib so'zlarni ko'chiring.

Fotoat...l..., mut..., ...tik, zo..., ...smoq,lim, s...l, i..., ...giz, ...tmish, alifb..., ...st...tik, ...tak, ...moq, ...giz, ...kin, ...m, ...lpig'ich,l,ng,tuk,l,ng,r, ...lim, ...vara, ...lchi,...kran.

Yo yo unlisining ifodalanishi, talaffuzi va imlosi

6-jadval

Yo yo - (Ё-ё) unlisi		
So'z boshida	So'z o'rtasida	So'z oxirida
yol – ёл	ayol-aёл	ashyo-ашё
yollanma- ёлланма	ayon-aён	avliyo-авлиё
yonmoq-ёнмоқ	ayoz-aёз	dunyo-дунё
yoqildi-ёқилди	bayon-баён	daryo-дарё
yoqla –ёқла	bo'yoq-бўёқ	go'yo-rўё

Ayrim o'zlashtirma so'zlarda Yo yo unlisi o'rnida o unlisi talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: режиссёр-rejissor, дирижёр-dirijor, суфлёр-suflor kabi.

23-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin yozuviga o'girib yozing.

Сайёра, ёқут, ёқловчи, ёритмоқ, ёқса, дастёр, жараён, ҳаёт, меъёр, ноёб, оёқ, шодиёна, тиббиёт, Сурайё, ҳайё-ҳай, тайёр, ҳаё, маҳлиё, мумиё, зиё, ёнғоқ, тўғиё.

Eslatma: почтаъон, павильон, медальон, батаъон kabi o'zlashma so'zlardagi yumshatish belgisi yozilmaydi, o-yo tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; pochtalyon, batalyon, pavilyon, medalyon.

Yu yu unlisining ifodalanishi, talaffuzi va imlosi

7-jadval

Yu yu - (Ю - ю) unlisi		
Soʻz boshida	Soʻz oʻrtasida	Ayrim oʻzlashma soʻzlarda yu-u tarzida yoziladi
yuksak – юксак	Adyutant-адъютант	valuta-валюта
yulduz – юлдуз	byurokrat-бюрократ	glukoza-глюкоза
yumush-юмуш	buyurmoq-буюрмоқ	budjet-бюджет
yutuq-ютуқ	muylulish-мюлиш	uvertura-увертюра
yurak-юрак	afyun-афюн	sujet-сюжет

Eslatma: компьютер, адъютант, разъезд, подъезд kabi oʻzlashma soʻzlarda yangi yozuvda ayirish belgisi yozilmaydi va uning oʻrniga tutuq belgisi ham qoʻyilmaydi: kompyuter, adyutant, razyezd, podyezd kabi.

24-mashgʻulot Husnixat mashqi. Quyidagi soʻzlarni lotin yozuviga oʻgirib yozing.

Юзма-юз, юзаки, юмор, уюшмоқ, юпқа, уюм-уюм, юклама, юксак, июнь, июль, суюнчи, юрак, юрт, суюқлик, уорма, суюнмоқ, ютмоқ, уюшма, ювош, ютуқ, ютмоқ, юқори, юмуш, юмуқ.

25-mashgʻulot Nuqtalar oʻrniga yu yoki u unisini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring. Talaffuziga eʼtibor bering.

...rt, ...non, b...st, ...k, ka...ta, miniat...ra, ...z, komp...ter, r...kzak, ...zaki, su...q, s...ita, i...n, uvert...ra, ...klama, ...ksak, ...mush, ...pqa, su...nchi, u...shma, ...mor, parash...t.

Ya ya (Я я) unlisining ifodalanishi, talaffuzi va imlosi

8-jadval

Ya ya - (Я-я) unlisi			
Soʻz boshida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz oxirida	Oʻzlashma soʻzlarda ya-a tarzida yoziladi
yayov –яёв	iyak-ияк	Aya-ая	flaga-фляга
yakka-якка	jiyak-жияк	Boya-боя	oktabr-октябрь
yalla-ялла	niyat-ният	boʻya-бўя	plaj-пляж

yassi-ясси	suyak-суяк	miya-мия	regulator-регулятор
ya'ni-яъни	noyabr-ноябр	Qoya-қоя	sentabr-сентябрь
yasha-яша	shoyad-шояд	soya-соя	shlapa-шляпа

26-mashg'ulot Quyidagi so'zlarni lotin-o'zbek yozuviga o'girib yozing, imlosiga e'tibor bering.

Хуррият, яхши, яшна, ловия, азият, сентябрь, октябрь, ноябрь, соябон, шляпа, пляж, ният, шикоят, соя, яхна, ялпиз, япроқ, мадҳия, суя, туя, уя, самимият, чўян, ялт-юлт, ярқ-ярқ, ям-яшил, шояд.

27-mashg'ulot. Matnni yozing, kirill yozuvidagi e, ё, ю, я harflari yangi yozuvda qanday ifodalanishini aniqlang.

Savol-javob

Odamlar Luqmoni hakimdan so'radi:

- Ey dono, hayot nima, unda qanday yashash kerak?

Luqmoni hakim aytdi:

- Hayot aql yo'li, kimki uni o'yinchoq deb bilsa, aldanadi, halol yeb, pok yashagan odamni esa hayot farzandim deb, ardoqlaydi, bunday kishilar e'zoz-u ehtirom topadi.

28-mashg'ulot. ye, yo, yu, ya, qo'llangan so'zlarga yigirmata misol yozing?

29-mashg'ulot. Matnni o'qing, unlilarni aniqlang, talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Boqiy umr

Aytishlaricha, mo'tabar bir odamning majlisida bir olim, fozil kishini ko'p ta'rif va tavsif qildilar. Mo'tabar odam u olimni ko'rib suhbatidan foydalanishni orzu qilib, uni shu majlisga da'vat qilish uchun o'z qarindoshini yubordi. Olim majlisga kelgach, salom berib hamma bilan ko'rishdi. Mo'tabar odam ta'zim qilib:

- Majlisingizga da'vat qilganingiz uchun tashakkur aytaman, ming yil rohat va farog'atda umr ko'ring dedi.

- ... bir odamning ming yil umr ko'rishiga aql bovar qiladimi?!

Odam ming yil umr ko'rmasligini hamma biladi. Lekin, o'lgandan keyin qolgan yaxshi nom yana bo'lak umrdir¹.

¹ "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" Donishmandlar bisotidan hikoyatlar, o'g'itlar, hikmatlar T.:1988.

Undoshlar imlosi

B b harfi.

- 1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;
- 3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda baʼzan **v** aytilsa ham **b** yoziladi.

30-mashgʻulot. Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri va chiroyli yozing.

Bor, bordi, kiprik, kurak, yorugʻ, yorliq, tirsak, burun, barcha, artmoq, supurgi, temir, terish, chuchvara, ogʻir, hozir, oʻtir, chaqir, ardoqli, ari, ariq, archa, arqon, argʻamchi, bari, bir, birakay, birvarakay, birga, birin-sirin, birov, burch, yer, jarangli, joʻxori, irim.

31-mashgʻulot. Soʻzlarni oʻqing, toʻgʻri talaffuz qiling va yozing.

Kitob, pudlab, murabbiy, buloq, bahor, yuzlab, qoplab, koʻplab, jalb, rubob, buyuk, butun, bulbul, azob, hisob, xitob, buyum, bulut, sabzi, toshbaqa, sabab, bayon, bebaho, savob, kabob, qalb, behi, bemor.

32-mashgʻulot. Matnni husnixat bilan koʻchiring.

Bilim baxt keltirar

Yusuf Xos Hojibning mashhur “Qutadgʻu bilig” asari Sharq madaniyati mevalaridan biri edi. Asar hijriy 462-(melodiy 1069-1070) yilda yozilgan. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali oʻz tasavvurida eng komil jamiyatning oʻsha davridagi talablariga javob beradigan insonni qanday koʻrgan boʻlsa, shu asosda oʻz qarashlarini bayon etadi. “Qutadgʻu bilig”da bilim va bilimdonlik ham juda ulugʻlanadi.

Kishining bilimdonligi uning tili orqali namoyon boʻladi. Iforni yashirsa, hidi ayon qilganidek, bilimni ham yashirib boʻlmaydi. U soʻz orqali maʼlum boʻlaveradi. Olamda odam paydo boʻlganidan beri yaxshi odatlarning barchasi bilimdonlar tufayli paydo boʻldi...

(B.Toʻxliyev)

P p harfi.

P p harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, yop* kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

33-mashg‘ulot. Quyidagi so‘zlarni o‘qing, talaffuziga e‘tibor bering. Qaysi so‘zlarda **b** undoshi **b, v, p** tarzida talaffuz etiladi, lekin **b** yoziladi, ajratib ustun tarzida yozing.

Namuna: bezak (bezak), sabzi (savzi) kasb (kasp)

Bayroq, belbog‘, kasb, bayram, lafz, baliq, kabobpaz, arab, qarab, abzal, bezak, asab, balchiq, sabr, maktab, ishlab, kosib, tobon, bek, bekat, toblanish, beka, tartib, qutb, bobo, qibla, zeb, adib, noyob, rubob.

34-mashg‘ulot. So‘zlarni ko‘chirib yozing, so‘z oxirida kelgan **p** undoshli so‘zlarga misollar yozing.

Qo‘lqop, kanop, koptok, gap, topishmoq, oppoq, ommabop, turp, paxta, nobop, surp, xasip, sep, ko‘rpabop, chap, tap-tap, gripp, chalp-chulp, lop, ep, alp, gup-gup, zap, ukrop, sharpa, parta, pokiza, likopcha.

35-mashg‘ulot. Matnni husnixat bilan ko‘chiring.

Hadis

Oллоh taolo bunday deydi: “Biz ushbu Qur’oni Karimni Qadr Kechasi nozil qildik Laylat ul – Qadr deganda, neni tushung‘aysen va Laylat ul – Qadr o‘zi nedir? Laylat ul – Qadr ming oydan ham yaxshiroqdir. O‘shal kecha parvardigorlari hukmi ila farishtalar va Jabroil tushg‘aydurlar, ul kecha tong otguncha omonlig‘ kechasi bo‘lg‘aydur”.

Abu Hurayra raziyallohi anhu rivoyat qiladirlar: “Nabiy sallallohu alayhi va sallam: Kimki Ramazonning farz ekanlig‘iga ishonib, unga ixlos qilib va uning savobidan umid aylab, ro‘za tutgaydur, ilgari qilgan gunohlarining barchasi kechirilg‘aydir, va shuningdek, kimki Qadr Kechasi uning ulug‘ligiga inonib, unga ixlos qilib va undan savob umid aylab, bedor o‘tkazgaydir ham, ilgari qilgan gunohlarining barchasi kechirilg‘aydir”, - deganlar”.

Birinchi kitob, 541–bet.

V v harfi.

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so‘zlarda ovozdor sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o‘zlashma so‘zlarda **v** ba‘zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

36-mashg'ulot. Quyidagi V v undoshli so'zlarni talaffuz va imlosiga ko'ra lab- lab undoshlari, lab-tish undoshlari va V v-F f tarzida talaffuz qilinsada V v yoziladigan turlarga ajratib, ustun tarzida yozib chiqing.

Namuna: vaqt – lab-lab
vaza – lab-tish
avtoruchka –v– f

Vodiy, suv, vagon, vaza, undov, vakil, vatan, avtobus, vaqt, vint, olov, qovun, yaylov, voleybol, oqlov, voronka, o'lchov, saylov, yettov, haydov, tanlov, vosita, varrak, voqea, gavhar, avtobiografiya, avtobaza, sovidi, avtomat, savdo, ovqat, vaflı, valuta, vajir-vujur, vasiyat, veksel, velvet, vena, avgust, avtopoyga.

37-mashg'ulot. Matnni ko'chirib yozing, lab undoshlarining tagiga chizing, talaffuziga e'tibor bering. Lab undoshlarini ajratib yozing.

Mashhur donishmand Buzurkmehrdan:

- Insof nima? – deb so'radilar.
- Insof odam o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqa kishiga ham shuni ravo ko'rishdir, - deb javob berdi.
- Eng yaxshi odam kim ?
- Aqlli odam.
- Qanday kishini aqlli odam desak bo'ladi?
- Aqlli odam o'ylamasdan biror ishga kirishmaydi.

Bilim oling, bo'lmang bekor,
Bekorchidan barcha bezor.

(R. Jumaniyozov.)

F f harfi.

- 1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft ; insof, isrof* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *fasl, fay, Fotima, fursat* kabi so'zlarda **f** tovushi ba'zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

38-mashg'ulot. So'zlarni yozing, **f** harfi **p** tarzida talaffuz qilinadigan so'zlarning tagiga chizing..

Futbol, fizika, asfalt, juft, insof, fitna, foyda, fol, fursat, folbin, sadaf, shkaf, naf, telegraf, epigraf, faryod, farzand, fotograf, avtograf, xavf, muallif, Yusuf, Sharif, Latif, Sharof, Ma'ruf, ta'rif, afzal, fabrika, faoliyat.

Topshiriq. Yuqoridagi soʻzlardan foydalanib matn tuzing.

39-mashgʻulot. Matnni husnixat bilan koʻchiring.

Arastu hikmatlari

Olijanoblik qanday boʻlishi haqida emas, balki yaxshi inson boʻlish haqida fikr yuritishimiz lozim.

Axloqli inson hatto oʻz hayotidan mahrum boʻlgan taqdirda ham doʻstlari va vatan yoʻlida koʻp ishlarni bajaradi.

Axloqiy fazilatlar inson niyatida aks etadi.

Harakat nazariya va amaliyotning jonli birligidir.

Inson qoʻlidan keladigan, oʻziga yarashadigan ishga qoʻl urishi kerak.

Har bir kishida va hammada muayyan maqsad boʻladi. Bu maqsadga erishish uchun ular bir yoʻlni maʼqul koʻrsalar, ikkinchisini rad etadilar.

Oʻz ehtirosini boshqara oladigan inson, uni kerakli va foydali tomonga bura oladi.

Turli xatolikka yoʻl qoʻyish mumkin, lekin toʻgʻri yoʻl bitta. Shuning uchun toʻgʻri yoʻldan koʻra xato qilish oson, moʻljalga tegishdan koʻra tegmaslik oson.

Musiqqa qalbga axloqiy taʼsir koʻrsatish quvvatiga ega boʻlsa, unda u yoshlarni tarbiyalash kuchiga ega boʻladi.

M m harfi.

M m harfi moy, muborak, tomon, ilhom kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

40-mashgʻulot. Quyidagi soʻzlarni yozing, burun undoshlarining tagiga chizing, ularni toʻgʻri talaffuz qilishga harakat qiling.

Moʻl, non, nok, mosh, musht, muz, noma, ammo, kon, umum, tom, nom, toʻn, osmon, shoh, lom-mim, ona, koʻngil, pona, singil, xona, soʻng, soʻngra, kitobingiz, ishingiz, tong, dong, ong.

41-mashgʻulot. Matnni husnixat bilan koʻchiring.

Rivoyat.

Bir ov gʻavgʻosi paytida, chopish va otish orasida Xusrav Parvezning tojidan yaraqlagan gavhar va porlab turgan inju uzilib yerga tushadi. Ovga

berilib undan hech kimning xabari bo'lmaydi. Ovdan keyin sir ma'lum bo'ladi. U toj bezagi mamlakat xirojiga teng bo'lgani uchun podshoh topgan kishiga qimmatli mukofot va'da qiladi. Xalq esa gavharni qidira boshlaydi.

Ikki kishi, biri gerdaygan Mudbir, ikkinchisi odobli Muqbil yo'lda hamroh edi. Ular inju qidirayotgan xalqqa yaqinlashib keladi. Mudbir gerdayib boshliqqa javob bermaydi. Muqbil esa eguilib salom beradi va oyog'i ostida yotgan gavharni ko'rib qoladi. Gavharni boshliqqa beradi. Boshliq bu xabarni Xusrav Parvezga yetkazadi. Podshoh Muqbilga deganidan ortiq in'omlar berib xursand qiladi.

Mudbil gerdayishi natajasida shahar go'laxidan joy oladi.

Odobnoma 107 –bet.

D d harfi.

1) *dala, odat, hunyod, modda, jiddiy* kabi so'zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

2) *obod, savod, marvarid, zavod, pud, sud, badqovoq, badxo'r* kabi so'zlarda t aytilsa ham, d yoziladi.

42-mashg'ulot. Berilgan so'zlarni talaffuziga ko'ra ikkiga ajratib yozing, imlosiga e'tibor bering.

Baland, obod, ozod, Samarqand, bahramand, madad, omad, zumrad, daromad, dardmand, kasalmand, mard, shogird, sekund, qad, had, did, hunarmand, pisand, masjid, ta'kid, umid, xarid, marvarid, tanqid, xursand, baland, payvand, poyezd, podyezd, loqayd, band, qand, qoraqand, savod.

Topshiriq. Qoidaga muvofiq o'ntadan misol yozing.

43- mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Hayo.

Hayo – bu o'zbekcha uyatdir. “Bir ketgan uyat qaytib kelmaydi”, “Dilda dog ko'tarib yurgandan ko'ra beting qizargani afzal”, -deydi xalqimiz. Lekin tilimizda hayosiz yoki behayo deyilganda, uyatsiz ish qilinganda xijolat chekmaydigan adabsiz kimsa tushuniladi.

“Hayo erkak kishiga nisbatan tabiatan ayol kishida ko'proq bo'ladi. Erkak kishilar bemalol aytadigan ba'zi so'zlarni ayollar turli andisha va uyalish tufayli ayta olmaydilar”, -deyuvchilar ham bor.

Bizningcha, gap faqat uyatliroq so'zni aytishda emas.

Gap – amalda hayoli bo'lishda.

“Vatan tuyg'usidan.”

T t harfi.

T t harfi *tong, tun; butun, o'tin, o't, kut* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Ikki undosh qator kelgan so'zlarning oxiridagi **t** undoshi talaffuzda tushiriladi: do'st, daraxt.

44-mashg'ulot. So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling, imlosi va husnixatga e'tibor berib yozing.

Tog', tom, to'n, til, tom, vatan, qattiq, katta, qatiq, matn, do'st, retsept, shikast, past, molparast, trest, metodist, xayolparast, artist, tekst, rost, statist, avgust, sust, go'sht, g'isht, to'rt, turist, yurist, sement, parlament, variant, brezent, obyekt, adyutant, juft, daraxt.

45-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Nonni e'zozlash.

Mashur olim va podshoh Ulug'bek Mirzo kunlardan bir kun o'z amaldorlari bilan safarga ketayotgan ekan. Ulug'bekning nigohi yo'l yoqasida yotgan non burdasiga tusharkan, u darrov otdan tushadi va nonni olib qo'yniga soladi. Vazir: "Nega bizga buyurmay, o'zingiz otdan tushdingiz?"- deb so'raydi. Ulug'bek: "Nonni dastlab men ko'rdim, uni yerdan olishni bironvga buyurish nonga nisbatan hurmatsizlik bo'lardi", - deb javob bergan ekan.

Darhaqiqat, xalqimiz -- xoh shoh bo'lsin, xoh gado -- nonni azaldan hurmat qiladi, uni hamma narsadan afzal, aziz deb biladi. Ujum va an'analarimizga binoan hatto nonni dasturxonga teskari qo'ymaydilar, uning ustiga boshqa narsa qo'yish mumkin emas. Nonning ustidan hatlab o'tish gunoh sanaladi. Bularning barchasi nonni e'zozlash, isrof etmaslikdan kelib chiqqan yaxshi odatlardir.

Yo'ldosh Abdullayev. "Hamrohim".

Z z harfi.

1) *zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilsa ham, z yoziladi.

46-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin yozuviga o'giring.

Фараз, тез, ялпиз, тоза, ўзбек, замин, азиз, туз, замон, бўз, баъзи, завқ, кўза, заиф, гўзал, туздон, зангор, зарба, тузсиз, изсиз, зеҳн, зиё, муз, изчил, изҳор, сўзсиз, зардўз, мазкур, эркисиз, имтиёз, бўзчи, денгизчи.

47-mashg'ulot. Quyidagi hikmatlarni o'qing, mazmunini tushuntiring. Husnixatga amal qiling.

Ilmli bo'lish, o'qish, o'qitish, yozish bilan hosil-u mukammal bo'ladigan bir saboqdir. Agar olim kishi chiroyli, xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolga yetganidan dalolatdir.

Quyosh nurlarini berkitib bo'lmaganidek, haqiqatning chirog'ini ham so'ndirib bo'lmaydi.

Kotibning yozuv xati bilan qoralash (yozish) go'zal qizning yanog'ida bo'lgan guldari go'zalroqdir.

Yer-u zaminning ko'rkamligi olimlar bilan bo'lsa,

Osmon-u falakning ziynati esa yulduzlar bilandur.

(Az-Zamaxshariy)

O'z nafsingga bo'lgan amir, shunda mardsan,

O'zgalarga bo'lma haqir¹, shunda mardsan.

Yiqilganni tepib o'tish mardlik emas,

Aftodaga² bo'lsang dastgir³, shunda mardsan.

(P. Mahmud)

48-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Bolaning burchlari.

Payg'mbarimiz o'z hadislarida bolaning ota – ona oldidagi burchlarini bunday ko'rsatganlar.

Ota – onaning vaqtiki kelib taom yeyishga muhtojligi bo'lib qolsa, bola o'z yo'nidan kasb-kor qilib taom yedirsin. Agar ota-ona xizmatga muhtoj bo'lib qolsa, farzand doim xizmatda tursin. Ota-ona chaqirsa, labbay deb javob bersin. Agar ota-ona bolaga gunoh bo'lmaydigan ish buyursa, bola ota-onaga itoat qilsin. Agar ota-ona kiyim kiyishga muhtoj bo'lib qolsa, o'zi topib kiyishga qodir bo'lmasa, farzand shu kiyimni topib

¹ haqir- qadrsiz, xo'rlangan

² aftoda- notavon, nochor, yiqilgan, xor, kuchsiz

³ dastgir- yordamchi, madad beruvchi.

kelib kiydirsin. Doim ota-onaning orqasida yursin, oldiga tushib olmasin. Q'z nafsiga nimani yaxshi ko'rsa, ota-onasiga ham shu yaxshi ko'rgan narsasini lozim topsin. Doimo ota-onasi haqiga duo qilib borsin.

“Hadis”dan.

S s harfi.

S s harfi *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

49-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin yozuviga o'giring.

Соат, саноат, сантиметр, сиёсат, силжиш, сухандон, сиёҳдон, тест, йўлбарс, арслон, сиртлон, станция, квас, кросс, соябон, махсус, тезис, нафс, солиқ, собиқ, сиёҳ, саёҳат, санъат, сайл, сабр, сиҳаттоҳ, сиҳат-саломатлик, инсоф, исроф, Самарқанд, Сайрам.

50-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

So'z

So'z insonni hayvondan judo ayladi deyдилar hazrat Alisher bobomiz. Bir tasavvur qilib ko'ring-a, so'zsiz ahvolimiz ne kechardi!. So'zlash qobiliyati-nutqi borki, odamlar bir-birlari bilan muomala qiladilar, muloqotda bo'ladilar, fikr bayon etadilar, bir-birlarini tushunadilar. So'zning xili va turi ko'pdir: shirin so'z, dag'al so'z, beadab so'z, qochirim so'z, hikmatli so'z, gap-so'z, tabrik so'z, mish-mish, ig'vo so'z, kelinchak allasi, ona duosi, ota olqishi, iltimos, buyruq, va'da, lafz, azmu qaror, yigit so'zi. So'zsiz insoniy jamiyat, ma'naviy hayot yoqdir.

Sh sh harflar birikmasi .

Shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshini ifodalash uchun yoziladi.

S va h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ' tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob (suhbatdoshlar)* kabi.

51-mashg'ulot. Berilgan so'zlarni bosma harflar bilan yozing, tutuq belgisi va ko'chish belgisining farqini tushuntiring.

Shalola, shoxlik, shanba, sho'r, she'r, shaffof, shoir, shamdon, sha'n, shafqat, shu'la, sho'xlik, sho'rxok, sho'ng'imoq, quyosh, she'rxonlik, shoh, shodlik, shifobaxsh, shifoxona, Sho'rtan, sho'rva, Shahrisabz, Shavkat, Shohimardon.

52-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Hikmatli savol-javoblar.

Qadimgi eron donishmandi Buzurkmehr bir hind donishmandi bilan axloq-odob borasida suhbatlashadi:

- Qaysi xislat odamni past martabadan a'lo darajaga ko'taradi?
- Aql va tamiz.
- Odam nima bilan odam bo'la oladi?
- Odamgarchilik bilan. Agar odamda shu xislat bo'lmasa, uning hayvondan farqi yo'qdir.
- Adab, tarbiya odamga qanday foydalar yetkazadi?
- Adabli, tarbiyali odam boshqalarga muhtoj bo'lmaydi, hech kimdan koyish eshitmaydi, hamma uni do'st tutadi.
- Hammadan achchiq narsa nima?
- Pastkash, noahil odamlarga muhtojlik, ulardan bema'ni so'zlar eshitish.
- Qaysi narsalar odamga alam keltiradi?
- G'azab, takabburlik va nojo'ya harakat.
- Insonning hayotda eng muhim orzu tilagi, nimalardan iborat?
- Sihat-salomatlik, farovon turmush va xotirjamlik.

J j harfi.

- 1) *jon, jahon, jiyyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

53-mashg'ulot. Quyidagi **j** undoshi ishtirok etgan so'zlarni talaffuzga ko'ra ikkiga (til oldi sirg'aluvchi va til oldi portlovchilarga) ajratib yozing.

Namuna: a) ajdar ...

b) jaji ...

Jabduq, jigar, janr, javon, peyzaj, jabr, jaz, jiz, jandarm, jayra, kollej, jala, jamg'arma, jambil, jeton, jips, dirijor, janjal, drujina, jarang, jiletka, jarlik, garaj, jiyron, massaj, jikkak, haj, rivoj, vaj, vijdon, jargon, jurnal, proyektor, jiya.

54-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Hikoyat

Bir kishi bir ulug' kishi huzuriga kelib, undan: "Ey fozil kishi, odam dunyoda qanday yashash, qanday yo'l tutish kerak?" -deb so'radi. U kishi shunday dedi: "Shod yasha, doimo xursandchilik payidan bo'l, har narsaga g'am chekaverma, yaxshilik urug'ini ekib, omonlik hosilini olishga urin. Dunyo shundayki, unda xatarli yo'llar ko'pdir. Ba'zan bu yo'llar ustiga " barg-u xashak tashlab qo'yilgan choxga o'xshaydi. Shuning uchun bu yo'ldan yurgan paytda avvalo yaxshilab o'ylash, toyib ketmaslik chorasini ko'rish kerak. Dunyo shunday bir ekinzorki, ekilgan narsalarni lutf-u karam suvi bilan sug'or. Undan topgan obro'-e'tibor hosilini xirs va ta'ma hujumidan asra!"

She'r:

Dunyoga boq, ichi juda ajoyib,
Ko'z ochib yumguncha bo'ladi g'oyib.

Odob bo'stoni va axloq gulistoni.

Ch ch undoshi

Ch ch bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi bo'lib, til oldi, jarangsiz qorishiq portlovchi undoshdir: *choy, uchun, kuch*.

55-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Achchiq, pichoq, bechora, bichiq, bichim, bochka, dekcha, echki, ichki, ixcham, ichmoq, kecha, kechmoq, kechqurun, kichik, kichkina, ko'cha, ko'chat, ko'chma, ko'chmanchi, muchal, naycha, nimcha, novcha.

Topshiriq. Ch ch so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida kelgan so'zlardan yigirmatasini yozing va to'g'ri talaffuz qiling.

56-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Nafs va uni tiyish odobi.

Aytishlaricha, qariyalarning haqini yeganlar qirq joyidan teshilarmishi. Bu – haq gap. Negaki, nafsni tiyolmagan biror tekinko'ring topgani o'ziga buyurganini, obro'- e'tibori oshib, el orasida bosh ko'tarib yurganini hech kim ko'rmagan. Aksincha, bunday odamlarning oxir-oqibati nopok yo'llarga kirish, ichkilikka berilib ketish hamda bor budidan ayrilib, ko'cha-kuyda sarson yurganlari, el orasida yuzlari shuvitlik tamg'asiga uchrab, xudodan qo'rqib, bandadan uyalib, insof, diyonat bilan yo'qchilik bo'lsada, ma'naviy boylik bilan yashaganlar. Zero, xudodan inson har doim baraka topadi. Natijada bunday insonlar, o'zini tiyadi, chunki Tangri taolo hamma narsadan boxabardir.

“Odobnoma”, 7- sinf.

R r harfi.

R r harfi titroq undoshdir, chunki talaffuzda tilning oldingi qismi o'pkadan chiqqan havo to'lqini ta'sirida titraydi.

R r harfi undoshi sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida, umuman qo'llanmaydi¹.

57-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni diqqat bilan o'qing, qaysi tilga mansubligini bilib oling, lotin yozuviga o'girib yozing.

Раҳбар (ф-т), рўмол (ф-т), разм (ф-т), ранг (ф-т), раңда (ф-т), ранжида (ф-т), рашида (ф-т), раста (ф-т), раҳна (ф-т), рашк (ф-т), режа (ф-т), равон (ф-т), равона (ф-т).

Ривож (а), ривоят (а), раҳмат(а), раҳм(а), раққоса(а), риоя(а), раис(а), райҳон(а), рамз(а), расм (а), ризқ(а), рассом (а), рақс (а), рақам (а), рубойи (а), расмий(а), рафиқа (а), рақиб (а), рад (этмоқ) (а), рухсат(а), доира(а), роҳат(а), рози (а).

Радио (р-лат), редакция (р-фр), размер (р), рейс (р-нем), реклама (р-лат), ректор (р-лат), рельс (р-ингл), ремонт (р-фр), рентген (р-нем), реферат (р-лат), рецепт (р-лат), роман (р-фр), ручка (р), рюмка (р-голл), режиссёр (р-фр).

¹ Sh.Shoabdurahmonov, va b. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" 61- bet. T. O'qituvchi" 1980.

Sof o'zbekcha so'zlarda r undoshi so'z o'rtasida va so'z oxirida kelishi mumkin: *qirg'ich, aroba*.

58-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Farzandlarning ota – ona oldidagi burchi.

Farzandlar ota–onaga itoat etib, har bir fursatni ularning rizoligisiz o'tkazmasliklari lozimdir. Har bir saodatli va aziz farzand ota–ona kayfiyatini rozilik belgisi bilan xandon qiladi, ota - ona xursandchiligini o'ziga keladigan yaxshilikning debochasi deb biladi. Najot eshigining kaliti va saodat gulshanining nasimi ota–ona tufayli hosil bo'ladi. Farzand o'stirishdan muddao shulki, ular imkonni boricha ota–ona xizmatini qilsinlar va hech qachon ularga uyat va sharmandalik keltirmasinlarki, uyat va sharmandalik ota–onaning farzandga bo'lgan mehru muhabbat oynasini g'uborlashtiradi. Bunday yomon farzanddan begonalarni yaxshiroq deb hisoblaydilar.

“Odob bo'stoni va axloq gulistoni”

L I harfi.

L I undoshini talaffuz qilib ko'ring. Til uchi yuqoriga bukilib milkka tegadi, havo tilning ikki yonidan sirg'alib o'tadi, shuning uchun yon undoshi deyiladi.

59-mashg'ulot. Har ikki ustundagi so'zlarni yozing, talaffuzdagi farqini ayting.

lola	lava
laylak	lampa
lagan	lager
olim	lider
ta'lim	polk
avval	palata
tugal	paluba
sandal	flot
avliyo	rulon
alla	rels

oila
domla

bulyon
palto

60-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Isrof, baxil, sahovat.

Isrof o'rinsiz va zaruriyatsiz yerlarga molni sarf etmakdir. Baxillik eng zarur sharoitda ham molni qizg'anmoqdir va ayamoqdir. Sahovat foydali o'rinlarda sarf qilib, foydasiz o'rinlardan saqlanmoqdir.

Isrof ila baxil din yuzasidan harom va aql yuzasidan eng yomon sanalgan ishlardandur.

Sahovat esa yaxshi fazilatdur. Isrof qilg'uchi baxil va xasis deyilur. Baxillik qilg'uvchi xasis deyilur. Musrif kishi davlatli bo'lsa ham, oxir bir kun faqirlik va xorlik balosiga yo'liqur. Baxil kishi qancha boy bo'lsa ham, oxir bir kun molining huzur halovatidan mahrum qolur. Saxiy kishining kundan-kun moli ko'payib, izzat va obro'si ziyoda bo'lur.

Baxilning bog'i ko'karmas,

Ko'karsa ham meva bermas.

M. Abdurashidxonov. "Adibi soniy"

N n harfi

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, ko'rinmaslik* kabi so'zlarda **n** tovushi ba'zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

61-mashg'ulot. Matnni ko'chirib yozing, n va ng harfli so'zlarning yozilishi va talaffuziga e'tibor bering.

Nasihah

Bir to'da maymunlar bir tog'da yashar edilar. Bir kun quyosh botib, dunyo yuzini tun pardasi qoplaganda jilovsiz izg'irin har tomonga yugurib, maymunlarga hujum qila boshladi. Bechora maymunlar sovuqdan titrar va isinish uchun biron chora axtarar edilar. Nogoh bir joyda yaltiroq qurti ko'rib qoldilar. Uni cho'g' deb o'ylab, talay o'tin yig'ib atrofiga qaladilar va hadeb puflay boshladilar. Ularning qarshisidagi daraxt ustida bir qush: "Bu olov emas, kechalari yaltirab ko'rinadigan yaltiroq qurt", -deb qichqirib faryod qilardi. Maymunlar esa uning gapiga e'tibor bermas edilar. Bu asnoda o'tkinchi bir odam ahvolni ko'rди va qushga: O'zingni

ko'p koyitma, ular sening so'zingga quloq soladigan, foydasiz ishdan voz kechadiganlardan emas, ularga nasihat qilish qilichni toshga urish va shakarni suv ostiga bekitish bilan barobardir",-dedi. Qush odamning so'zlariga e'tibor bermay, maymunlarning xatosini tushuntirish uchun daraxtdan tushib ular yoniga keldi. Maymunlar uni o'rab olib, boshini uzib tashladilar.

Otalar:"So'nggi pushaymon-o'zingga dushman",-deb bekorga aytishmagan.

G g harfi.

G g harfi *gul, go'zal; ega, gugurt; teg, eg* kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

62-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin yozuviga o'giring.

Гузал, Гулноза, гавҳар, гиёҳ, ангор, Г'уругли, онгли, сингил, тонг, таг, дастгоҳ, дурадгор, талабгор, дугоҳ, абгор, гап, гаров, газ, гал, газета, гулзор, донгдор, гаштак, камгап, зангори, конгресс, архипелаг, археолог, география, геометрия, гандбол, гарлероб, гирдоб, геолог.

63-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Izoh va o'git

Alloh bir kuni qulini avf etishni istasa shu quli uchun xayrli ish qilishga sabab paydo qiladi. quli ham xayrli fursat qo'lidaligida shu xayrli ishni qilsa, olloh roziligiga yetishadi. Qo'lida marhamat va mehr tuyg'usi bo'lsa, Alloh ham o'sha qulini sevadi, gunohlarini kechiradi. Mehribon va marhamatli bo'lish insonlik alomatidir.

K k harfi.

K k harfi *ko'l, ko'ylak; uka, moki; tok, bilak* kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

64-mashg'ulot. Berilgan so'zlarni bosma shaklda yozing.

Kaklik, ko'cha, kurs, dekan, sikl, anketa, kaltakesak, kungaboqar, yakka, sakkiz, kiyik, kompyuter, Kattaqo'rg'on, kecha, ipak, ikki, logika, matematika, kōsmik, raketa, kamalak, kapalak, kamtar, kabutar, aka-uka, asta-sekin, Kamol, kino, diktant, fonetika, estetika.

65-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Nopoklik oqibati

Hazrati ibn Mahmud rivoyat qiladilar: “Bir kuni Abdulloh ibn Abbos yonlarida o'tirsam, bir kishi kelib:

- Biz haj ziyoratini ado etish uchun kelayotgan edik, yo'lda bir sherigimiz vafot qildi. Uni dafn etish uchun go'r qazisak, qop – qora ilon chiqdi. Keyin boshqa yerdan go'r qazidik, yana lahad ichidan haligi qora ilon chiqib keldi. Uchinchi joyga o'tib qabr qazidik, yana o'sha ahvol. Hayron bo'lib, nima qilarimizni bilmay, sizning yoningizga keldik – dedi.

Hazrati ibn Abbos:

- Uni o'sha ilonning yoniga ko'mib yuboraveringlar. Allohga qasamki, siz u sho'r peshonani dafn etish uchun butun yer yuzini qazib chiqqaningizda ham o'sha ilon qabrdan chiqaveradi, - dedi.

Shunday qilib, marhum ilon yoniga dafn qilindi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, haligi odam hayotlik chog'ida unni yog'och qipig'iga qorishtirib sotar ekan”.

“Hidoyat ” jurnali, 1999-yil, 2-son.

Y y harfi.

Yy harfi *yo'l, yigit, yaxshi, yoz; tuya, dunyo, tayyor; soy, kuy* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

66-mashg'ulot. Nuqtalar o'rniga zarur harfni qo'yib so'zlarni ko'chiring va ma'nosini aniqlang:

Qi...in, ki...ik, o'...in, qa...iq, va...ron, zi...rak, bi...ron, si...la, tu...nuk, ji...da, qi...ma, ma...na, zi...nat, ti...rak, ko'...lak, hi...la, fido...i, a...von, ba...ram, karna... gul, ma...don, ma...mun, ma... sa, ma...or, ma...da-chu...da, ma...iz, qa...moq, na...za, po...devor, po...loqchi, sa...lgoh, sa...roqi, ra...hon, ma...in, sa...il.

67-mashg'ulot. Y y harfi talaffuzda eshitilib, ammo yozilmaydigan so'zlarning tagiga chizing.

Asliy, axloqiy, aqliy, qadimiy, vodiy, gerbariy, doimiy, limon, teorema, yovvoyi, doim, poema, diametr, Naima, fidoyi, nina, milliy, ilohiy, hiyla, iylamoq, litr, lirika, radio, million, tabiat, material, okean, teatr, oila, shoir, doira, maishat, Saida.

68-mashg'ulot. Quyidagi soʻzlarni lotin yozuvida yozing, imlosi va talaffuziga eʼtibor bering:

Йўлбарс, майор, йўлош, йўловчи, йўлланма, пойтахт, сайилгоҳ, табиий, уйдирма, хушомадгўй, уйинчоқ, қайрағоч, қайроқ, ҳайқирёқ, ҳойнаҳой, жигибийрон, доимий, вайрона, бўйинтуруқ, бадийй, айлана, айём, азалий, бойчечак, илоҳий, лойиҳа, майда-чуйда.

69-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Yil fasllari

Yer Quyosh atrofini bir yilda bir marta aylanib chiqadi. Shu davrda u oʻz sirtini Quyoshga har xil vaziyatda "tutib" beradi. Quyosh osmonda baland koʻtarilganda, uning nurlari Yerga toʻgʻri tushib, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq boʻladi. Quyosh uncha baland koʻtarilmay, uning nurlari Yerga qiyalab tushganda, Yerni paypaslab oʻtib ketgandek boʻladi va yer yuzida sovuq turadi. Qishdan keyin bahor, bahordan keyin yoz keladi. Yozning qoq oʻrtasida- 22-iyunda yozgi Quyosh turishi yuz beradi. Endi yoz oʻzining haqiqiy kuchini koʻrsatadi

Ng ng harflar birikmasi.

Ng ng harflar birikmasi *yangi, ong, ming, tong, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalaydi. Bu tovushni talaffuz qilishda tilning orqasi tanglayga tegib, havo burundan chiqadi. Ozbek tilida n va g harflari mustaqil ikki xil nutq tovushini ifodalaydigan soʻzlar ham bor.

Masalan:

n va g ikki tovushini bildiradi:	ng birikmasi bir tovushni bildiradi.
Singan	bodring
Menga	singil
Mingan	durang
Bugungi	dongdor
Dinga	jarangli
Keyingi	kengroq
Indinga	mungli
Tangens	tenglik

70-mashg'ulot. Matnni yozing, ng undoshining tagiga chizing.

1. Oyoqda etiging tor bo'lsa, dunyo kengligidan ne foyda. 2. Kengashganga keng dunyo, talashganga tor dunyo. 3. Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan. Umidingni uzma, ko'nglingni buzma. 4. Tor joyda osh yegandan ko'ra, keng joyda musht yegan yaxshi. 5. Onangni kaftingda tutsang, singlingni boshingda tut. 6. Kengashli to'y tarqamas, keng bichilgan to'n tor kelmas. 7. Yomonga sir aytsang, yurtga yoyadi. 8. Yaxshining so'zi-qaymoq, yomonning so'zi-to'qmoq. 9. Ona yurtning-oltin beshiging.

71-mashg'ulot. Quyidagi so'zlardan n-g tovushini bildiradigan so'zlarni hamda ng tovushini bildiradigan so'zlarni ikki ustunga bo'lib, bo'g'inlab yozing.

Angor, anglamoq, angishvona, burungi, gangimoq, dangal, dangasa, dongdor, tajang, yengil, mangu, jang, ko'ringan, jangovar, kunga, ming, zangori, ingichka, chang, keyingi, kengaymoq, yangra, yangilik, hangoma.

72-mashg'ulot. Ng tovushi oldidan unli va undosh harflar qo'yib so'zlar hosil qiling. Hosil qilingan so'zlarni qatnashtirib 3 ta gap tuzing.

73-mashg'ulot. Quyidagi gaplarni lotin yozuvida yozing. Tagiga chizilgan so'zlarning talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.

1. Ё чангинг чиқсин, ё донгинг чиқсин. 2. Асқар ака ёнгин бўлаётган жойдан тахминан икки юз қадамча нарида келарди. 3. Ёлғиз отнинг чанги чиқмас, чанги чиқса ҳам донги чиқмас. 4. Қингир ишнинг қийиғи қирқ йилдан кейин ҳам чиқади. 5. Отабек тегирмон ичида қоронги тушишини пойлаб ўтирар эди. 6. Тўнгич ўғил ўртанча ўғилга қараганда ақллироқ эди. 7. Унинг қўнгироқдек овози ҳаммага бирдек ёқарди. 8. Ҳовлидаги ёнгоқ дарахти тағида катта супа бор эди. 9. Қуёш кўринмасди-осмонни қўнғир булутлар қоплаб олганди. 10. Ишга бориш учун бу йўл жуда ўнғай.

Q q harfi.

Q q harfi *qizil, qirq, aql, huquq*, kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Q q harfining yozma va bosma, katta va kichik shakllarini hamda so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida kelishiga misol yozing.

74-mashg'ulot. Quyidagi matnni husnixatda yozing.

Hikoyat

Bir o'rdak tiniq suvda soyasini ko'rib, uni baliq deb o'yladi va suvga sho'ng'idi, hech narsa topolmadi. Bir necha marotaba sho'ng'idi charchagandan keyin o'rdak bu ishning bahridan kechdi. Bir necha kundan keyin ko'lga rosmana baliqlar suzib keldilar, lekin o'rdak har gal baliq ko'rganda uni oyning aksi gumon qilib, ularni tutib yeyishga harakat qilmadi.

Shunday qilib, yanglish tajriba natijasida u hamisha ochlik bilan kun kechirdi.

75-mashg'ulot. Oldin bir bo'g'inli, keyin ikki bo'g'inli, va uch bo'g'inli so'zlarni alohida-alohida yozing. Ma'nolarini tushuntiring.

Qulf, qayiq, qirq, qapqoq, qo'shtimoq, qavs, qo'rqqoq, qizg'aldoq, qizamiq, qutb, qarz, qashshoq, qarmoq, qayroq, qalb, qadr, qazg'oq, qahr, qirqquloq, qayzoq, qorashaqshaq, qoya, qop, quruq, qo'g'irchoq, quyuq, qo'ng'iroq, qush, quvnoq, qoq, qumtuproq, qatqaloq.

76-mashg'ulot. So'z oxirida q yoziladigan otlarga 3 ta misol topib, ularni egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlab yozing.

Namuna: qishloq

shaxsi	birlik	ko'plik
I shaxs	qishlog'im	qishlog'imiz.
II shaxs	qishlog'ing	qishlog'ingiz.
III shaxs	qishlog'i	qishloqlari.

77-mashg'ulot. So'z o'rtasida qator keladigan q undoshli 5-6 ta so'z topib, ularni bo'g'inga ajratib yozing.

78-mashg'ulot. Nuqtalar o'rniga zarur harfni qo'yib so'zlarni ko'chiring.

Qah...aha, qa....aymoq, qa...roq, qa...ir-qu...ur, qis...a, qis...ich, sich...on, qo...ilmoq, quyush...on, ...urt-qumurs...a, qo'r...oq, qo'lti...tayoq, ha...orat, ha.....oniy, i...tisod, lu...ma, ma...tov.

79-mashg'ulot. Quyidagi matnni lotin yozuvida ko'chirib yozing.

Хумо

Осиёнинг тоғлар билан ўралган саҳроларида ажойиб бир қуш яшайди. Унинг товуши нафис, қанот қоқишлари гўзал бўлиб, улутворлик тимсолидир. Қушнинг патлари қуёш нурларига ўхшаб порлаганидан ундан ерга соя тушмайди. У ўлгандан кейин ҳам унинг танаси йўқ бўлмайди, патлари аввалгидек ярқираб, нур сочишда давом этаверади. Лекин кимдир бу гаройиб шуъаларни эгалламоқчи бўлиб, унинг лоақал битта патини юлиб олса, ўша заҳоти қора ҳасаддан кўр бўлади.

Бу ноёб қушнинг номи Хумо ёки Ёрқиндир. У асрлар бўйи сўнмайдиган ҳақиқий шон-шуҳратга ўхшайди. Уни бирор зот йўқ қила олмайди.

G'g' undoshi.

G'g' harfi *g'oz, bag'ir, tog'* kabi so'zlarda chuqur til orqa, jarangli, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Eslatma. Oxiri *g'* bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi - *ga* qo'shilganda *q* aytilsa ham *g* yoziladi: *bog'ga, og'gan, sog'guncha* kabi.

80-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin alifbosida yozing, imlosi va talaffuziga e'tibor bering.

Ўнғир-ғнғир, гулгула, ғунғилламоқ, гала-говур, гавго, қўнғиз, қизғалдоқ, қирговул, чуғур-чуғур, тўгнағич, уйғур, оғирлик, мижгов, мағзава, йиги-сиги, йигилиш, йўгон, изғирин, ғирч-ғирч, жиғибийрон, ёлгончи, елпигич, данғиллама.

81-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarning ma'nolaridagi farqini ayting va shunday so'zlarni davom qildirib yozing.

yoq'-yoq, tog'-toq, tig'-tiq, bog'-boq, g'arib-qarib, g'or-qor, og'moq-oqmoq, g'o'ra-qo'ra, bag'ir-baqir, yozig'-yoziq.

82-mashg'ulot. Nuqtalar o'miga **g'** yoki **q** harflaridan mosini qo'yib so'zlarni ko'chiring.

Ma...iz, si...im, si...moq, ta...in, ta...inchoq, tuy...u, uy...u, uy...un, tut...un, chi...iriq, cha...iriq,, chi...anoq, cha...aloq, ...aram, yol...in, yon...in, o...il, ori..., bo'...moq, bo...moq.

83-mashg'ulot. Husnixat mashqi

Saxovat

Bir muruvvatli saxiy odamning juda ko'p doni bor edi. U turgan shaharda oziq-ovqat tangligi boshlandi. Saxiy odam hamma donlarini beva-bechoralarga ulashib tugatdi. Tanglik kuchaygach o'zi ham donga muhtoj bo'lib qolibdi. Kishilar uni malomat qilishdi:

- Qiziq odam ekansan, o'zing muhtojlikka tushib qolishingni bila turib, nega donlaringni hammaga ulashib berib yubording?

Saxiy kishi dedi;

- Xalq och bo'la turib, men rohatda yashasam, insofsizlik qilgan bo'laman. Ochlik azobini xalq bilan baravar tortishni, xalq qayg'usiga sherik bo'lishni vijdonim buyurdi. Men vijdonim buyrug'iga itoat qildim.

(“Oz-oz o'rganib dono bo'lur” kitobidan).

X x harfi.

X x harfi *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi. X x tovushining talaffuzida tilning eng orqa qismi tanglayning orqa qismiga ancha yaqinlashganday bo'ladi: havo to'liqini shu oraliqdan sirg'alib chiqadi: *xalq, xat, xatar* kabi.

84-mashg'ulot. So'zlarni ko'chirib yozing, talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.

Maxluq, to'xtam, yaxshi, yaxna, baxt, taxmin, paxta, shaxdam, daraxt, baxshi, shox, taxt, xushxabar, xushmanzara, xohish, xontaxta, xarxasha, xavfli, xayol, xavf-xatar, xattot, xanjar, xayolparast, xas-xashak, xayrixoh.

85-mashg'ulot. Nuqtalar o'rniga **x** va **h** harflaridan mosini qo'yib so'zlarni yangi alifboda yozing.

Фа...рий, тил...ат, тимсо..., та...қир, та...аллус, суд...ўр, со...ибқирон, садарай...он, ру...сор, ру...орий, ра...мат, пано..., паришон...отир, о...ак, но...уш, мас...арабоз, кал...ат, да...маза, да...а, гул...ан, ва...ший, ба...тиёр, ба...одир, а...лоқ, ар...иё, а...д.

86-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni ko'chirib yozing. Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring.

1. Yer-xazina, suv-oltin, 2. Bilim baxt keltirar. 3. Ertalabki ish ko'ngilni qiladi xush. 4. Baxilni o'z saxiylikligi bilan uyaltir. 5. Xayrli va savobli ishlar insonni turli falokatlardan saqlaydi.

87-mashg'ulot. Husnixat mashqi.

Archa

U hamisha ko'm-ko'k. Ona tuproq bag'ridan unib quyoshning zarrin nurlarini emgan damlaridan qasamyod qilgandek bir xilda o'sadi. Uning rangi ham hech o'zgarmaydi. Ko'm-ko'k, yam -yashil...

Kunlar o'taveradi. Yilning ilk fasli – qishning izg'iriniga bardosh beradigan ham shu. Hatto novdalari oppoq qorlarga chulg'anganida baxtiyor kelinchakka o'xshab ketadi. Bahor ham sevimli libosni o'zgartirmaydi. Faqat yangi novdalari qanot yozib, uyg'onish faslini qutlaydi. Yozning jazirasida ham odamlarga zavq bag'ishlaydi.

Tabiatning to'kinchilik fasli bo'lmish kuzda hamma yoq oltin rang qiyofaga kirganida, so'ngra daraxtlar o'zining to'nini tashlaganida ham, u avvalgidek yashnab turaveradi. Hech qiyofasini o'zgartirmaydi.

Hamma odamlar ham tabiatning ana shu bebaho ehsoniga o'xshasa qaniydi.

H h harfi.

H h harfi talaffuz etilganda havo oqimi bo'g'izdan erkin chiqadi va og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. **h** tovushi so'z o'rtasi va oxirida unli tovushdan keyin kelganda, undan oldingi unli cho'ziq talaffuz qilinadi: *shahar- shaar, sahar-saar.*

88-mashg'ulot. Nuqtalar o'rniga **x** va **h** harflaridan mosini qo'yib so'zlarni ko'chiring.

...avas, a...moq, ...amro..., guno...kor, da...shat, dastur...on, da...ldor, da...maza, ..am...ona, ja...olat, za...ar, i...cham, i...tiro, i...losmand, iste...kom, fa...r, pa...lavon, la...za, loyi...a, ma...sulot, ma...madona, mas...araboz, mo...iyat, mu...okama, mu...it, imti...on, mar...um, ma...sul, ma...rum.

89-mashg'ulot. Berilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Uxladi-uhladi, shoh-shox, xil-hil, xol-hol, xam-ham, xush-hush, xiyla-hiyla, rux-ruh, xar-har, hurlik-xo'rlik, Tohir-taxir.

90-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni lotin yozuvida yozing va h harfi talaffuziga e'tibor bering.

ҳадис, ҳусн, ҳошия, ҳодиса, қаҳва, заҳар, аҳвол, баҳайбат, аҳён-аҳён, баҳр, баҳузур, гуноҳ, ҳиқичоқ, ваҳший, жаҳонгир, заҳмат, иштаҳа, кўҳна, маҳси, маҳсулот, муҳташам, оҳанг, паҳлавон, раҳмдил, таҳрир, раҳбар, қаҳр, ҳукм.

91-mashg'ulot. Husnixat mashqi

Mardlik

Mardlik-bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik-bu inson qalbidagi quyosh, u mardlarga nur sochadi. Mard bo'lgan kishida haqiqat, qanoat, sabr, ezigulik, vijdon, adolat, diyonat, insof, nomardlarda yot'izlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad, adovat, razolat, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlarni uchratish mumkin. Mard kishi bir so'zli, jasoratli, o'ktam bo'ladi. O'z orzu-niyatlarini amalga oshirishda faqat iqtidoriga, bilim, kuch-g'ayratiga ishonadi. Zinhor-bazinhor o'ta-onasining davlatiga uchmaydi. Boshidagi do'ppi nomini tabarruk qilib, o'z millatining kamoli uchun mehr oqibatli bo'ladi.

Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nomini va sha'nini hamisha ulug' qo'yadi. Mard kishi yurtining qalqoni va xalqining suyanchig'i bo'ladi. O'g'il-qizlarini voyaga yetkazadi, ularga o'zi yetolmagan armonlarini tushuntiradi. Amalga oshmagan ishlarini ro'yobga chiqarishini orzu qiladi.

(“Axloq, odob saboqlari” kitobidan)

Undoshlar tasnifi

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlar: sonorlar va shovqinlilar bo'linadi

9-jadval

Sonorlar	Shovqinlilar	
	Shovqinlilar un paychalarining ishtirokiga ko'ra ikkiga bo'linadi	
	Jaranglilar	Jarangsizlar
M m	B b	P p

N n	D d	T t
L l	G g	K k
R r		Ch ch
Ng ng	J j	
	V v	Sh sh
	Z z	F f
	G'g'	S s
	Y y	X x
		Q q
		H h

Sonor (ovozdor) undoshlar: m, n, ng, l, r undoshlarini talaffuz qilganimizda, un paychalari faol ishtirok etadi, natijada ovoz hosil qiladi, ovoz miqdori esa shovqinli undoshlarnikidan ko'proqdir, shuning uchun ovozdorlar deyiladi.

Sonor undoshlar yuzasidan savollar

1. Qanday undoshlarga sonorlar deyiladi?
2. Sonor undoshlarning turlarini tushuntiring.
3. Nima uchun m, n, ng burun undoshlari deyiladi, to'g'ri talaffuz qiling va tushuntiring.
4. Ll undoshining talaffuzdagi farqini misollar yordamida tushuntiring.
5. R r undoshining so'zlarda qo'llanish o'qi.
6. Sonor undoshlarini daftaringizga yozma va bosma harflar bilan bir qatordan yozing.

Jarangli va jarangsiz undoshlar

Jarangli undoshlarni talaffuz qilganimizda ovoz ishtirok etadi, lekin sonorlarga nisbatan kamroq. Shuning uchun sonorlar eng ovozdor undoshlar hisoblanadi. Sonorlar ham jaranglilarga kiradi.

Jarangsiz undoshlarda esa ovoz ishtirok etmaydi, ular faqat shovqindan iborat bo'ladi.

9-jadvalda berilgan jarangli va jarangsiz undoshlarni to'g'ri talaffuz qiling va farqini aniqlang.

92-mashg'ulot. Jarangli va jarangsiz undoshlar bilan boshlanadigan 20 ta so'z tanlang, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

93-mashg'ulot. Quyidagi matnni o'qing. Mazmunini uqib oling. Jarangli undoshlar tagiga bir chiziq, jarangsiz undoshlar tagiga ikki chiziq chizing.

Abulqosim Mahmud Zamaxshariy

Markaziy Osiyolik olimlar jahon madaniyati va faniga munosib hissa qo'shganlar. Shunday olimlardan biri xorazmlik Abulqosim Mahmud Zamaxshariy edi. U arab tilida ellikdan ortiq asar yozgan. Ular tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, tafsir, hadis, huquq va fanning boshqa sohalariga oiddir.

“Muqaddimat ul-adab” fors, chig'atoy (o'zbek), mo'g'ul va turk hamda boshqa tillarga tarjima qilingan. Manbalarda ko'rsatilishicha, “Muqaddimat ul- adab” ning o'zbek tiliga tarjimasi Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan.

Olimning “Asosul balog'a” (Notiqlik asoslari) asari, asosan, lug'atshunoslikka bag'ishlangan

Fikrni chiroyli so'z va iboralar bilan ifodalash, so'z boyligidan o'rinli va ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat va balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Buning uchun so'zni tog'ri, o'z o'rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'ladi.

Tovushlarning hosil bo'lishida nutq a'zolarining faol ishtiroki

10-jadval

Lab undoshi		Til undoshi			chuqur til orqa	Bo'g'iz undoshi
lab-lab und.	lab-tish und.	til oldi	til o'rta	til orqa		
B b	F f	D d		G g	Q q	H h
M m		J j	Y y			
P p		L l		K k	X x	
V v	V v	N n			G' g'	
		R r		Ng ng		
		S s				
		T t				
		Z z				
		Sh sh				
		Ch ch				

**Tovushlarning hosil bo'lish usuliga ko'ra bo'linishi
(artikulatsiya usuli)**

11-jadval

Sof portlovchilar	Portlovchi - sirg'aluvchi	Qorishiq portlovchilar	Sof sirg'aluvchilar	Titroq tovush
B b	M m	J j (d+j)	V v	R r
D d			J j	
G g	N n	Ch (t+sh)	Z z	
P p			F f	
T t	Ng		S s	
K k			Sh sh	
Q q			Y y	
			G' g'	
			X x	
			H h	
			L l	

**Kirill alifbosidagi u undoshining lotin-o'zbek
yozuvida ifodalanishi va imlosi**

Kirill-o'zbek yozuvida (o'zlashgan so'zlarda) qo'llanib kelgan u undoshi lotin-o'zbek yozuvida s yoki ts harflar qo'shilmasi bilan ifodalanadi.

So'zlarda s yoki ts harflar qo'shilmasini qo'llashda quyidagilarga e'tibor bering:

1. u o'rtaida s yoziladi:

a) so'z boshida: *цемент-sement, цирк-sirk, цума-sitata;*

b) so'z oxirida: *абзац-sabzas, кварц-squars, шприц-shpris;*

d) so'z o'rtasida undoshlardan keyin: *акционер-saksioner, концессия-skonsepsiya;*

e) old qo'shimchadan keyin: *антициклон-santisiklon, эпицентр-sepisenttr.*

f) so'z boshida a mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda u ikki unli orasida kelsa ham, s (ts эмас) yoziladi: *ацетилен-sasetilen, ацетон-saseton, ацетат-sasetat.*

2. Ikki unli o'rtasida u o'rtaida ts yoziladi: *доцент-tsdotsent, офицер-tsofitser, форматевт-tsformatsevt.*

3. Kirill yozuvida **су** qator kelganda lotin-o'zbek yozuvida **ss** kabi yoziladi: *сценарий-senariy, инсценировка-inssenirovka*.

94-mashg'ulot. Tarkibida **ц** undoshi bo'lgan so'zlardan o'nta yozing (avval kirillda, so'ng lotinda), imlosini tushuntiring.

95-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni va matnni lotin-o'zbek yozuviga o'girib yozing, imlosini tushuntiring.

Центнер, циклон, цитага, станция, целлофан, цемент, цензура, циркуль, цистерна, циферблат, цитрус, резиденция, редакция, акционер, кварц.

“Ц” нима дейди?

“Ц” дейдилар менинг отим
Айтай макон ҳам сифатим
Циркка борар бўлганлар,
Концертдан кўнгил тўлганлар,
Цехда мени кўрганлар,
Циркулдан жойим сўрганлар
Доим бўлсинлар омон,
Чет сўзларда келурман, бил,
Сўзларимга амал қилгил.

(R.Jumaniyozov, T.Zufarov «Harflar gulshani»)

Yonma-yon keladigan undoshlar imlosi

1. *Xursand, payvand, do'st, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi.
2. *Gramm, metall, kilovatt* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zda xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall +lar = metallar* kabi

Eslatma:

So'z o'rtasida yonma-yon keladigan bir xil undoshli so'zlar (hamma, hujjat) ni eslang, yozing va talaffuz qiling. Qoidada berilgan so'zlardagi yonma – yon undoshlardan farqini ayting.

96-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni yozing, yonma-yon kelgan undoshlarning tagiga chizing, talaffuz qiling va farqini ayting.

assalom

baland

metall

yetti	karaxt	kristall
millat	kaft	ball
taassurot	shaxt	gramm
tasavvur	mard	kompress
pilla	shift	kilovatt
muvaqqafiyat	juft	kongress
katta	dasht	kilovatt
jizza	sust	telegramma
muddat	past	

Asos va qo'shimchalar imlosi

Fe'ldan ot va sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) *sayla-saylov, sina-sinov, so'ra-so'roq, o'ra-o'roq (ot), o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi, quvna-quvnoq*, (sifat) kabi so'zlarda a unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v**, **-q**, **-qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi.

97-mashg'ulot. Quyidagi matnlarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zagida yuz bergan o'zgarishlarni izohlang.

1. Mustaqil O'zbekistonimizda o'tkazilgan ulkan qo'shiq tanlovining barcha g'oliblarini samimiy qutlayman. (I.Karimov)

2. O'ynoqi shamollar ila basma-bas

Ana qo'ndi burgut eng yuksak joyga (A.Oripov)

3. O'g'ilga o'ttiz uydin tilov bor,

Qizga qirq uydin ishlov bor. (Maqol)

4. Bu yerlarda u, kuychi, xayolchan yurdi

(Bolalikdan chanqoq bilimga, kuyga)

Fikrida ne-ne go'zal rejalar qurdi (Oybek)

Tanlov, o'ynoqi, tilov, ishlov, chanqov so'zlarining ma'nodoshlarini topib, ulardan so'z birikmasini hosil qiling. Ularning ma'no-mazmunini aniqlang.

2) *O'qi-o'quv, qazi-qazuv, sovi-sovuq, to'qi-to'quv* kabi **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarda **-v**, **-q** qo'shimchalari qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va yoziladi.

Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarda -q qo'shilganda bu unli i aytiladi va yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq, qizi-qiziq, tini-tiniq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarda -uv qo'shiladi: *yoz-yozuv, bor-boruv, kurash-kurashuv, tin-tinuv* kabi.

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: *uz-uzuq, yut-yutuq*, kabi. Lekin uchinchi bo'g'inida i aytiladi va yoziladi: *uyushiq, uchuriq, burushiq, bulduruq* (qush) kabi.

98-mashg'ulot. Nazmiy va nasriy matnlarni qiroat bilan o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zagida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlang. So'z o'zaklarini asl holatida yozib ko'rsating. Ularga ma'nodosh yoki zid ma'noli so'zlar toping. Ma'nosini izohlang.

1. Matematika darsida qo'shuv-oluv amallarini o'rgandik. 2. Ona tili mashg'ulotida yangi yozuvni mashq qildik. 3. Uyushiq bo'lakli gaplarni yaxshi tushunib oldim. 4. Talabalarimizdan biri Zulfiya nomidagi yutuqqa ega bo'ldi. 5. Dehqon ko'ziga tushgan eski qalpoqni ko'tardi, choponning etagi bilan burushiq peshonasining terini artidi.

k, q, bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga; *bek, yo'q, yoq*, kabi bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k-g, q-g' ga aylanadi va yoziladi: *tilak-tilagi, bilak-bilagi, yaproq-yaprog'i, qishloq-qishlog'i* kabi.

99-mashg'ulot. She'rni ifodali o'qing. Nazmiy matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zagidagi tovush (harf) o'zgarishini izohlang. Tagiga chizilgan so'zlar tarkibini tahlil qiling.

1. Faxr etarman, ona xalqim,

Ko'kragimni tog' qilib.

Ko'kragida tog' ko'targan,

Tanti dehqon, o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga

Ne uchun madh etmayin!

O'zligimni bilmoqqa davrim

Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,

Men bashar farzandiman.

Lekin avval senga bo'lsam,

Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

(E.Vohidov)

2. Bilasanmi tog' burgutin zehnini,
Bolasiga muhabbati, mehrini?
Chiqqanida nihollarning yaprog'i,
Yashnaganda vodiylarning har yog'i.
Bolalarin silab-siypab burgut ham
Temir qanot o'stiradi dam-badam.
So'ng chiqarib uyasidan havoga,
Uchiradi keng, poyonsiz fazoga.

(M.Tursunzoda)

Ammo ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlar, ko'pchilik bir bo'g'inli so'zlarda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtiroki, ocherki, erki, huquqi, ravnaqi, yuqi, yuki* kabi.

Qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'z tarkibidagi tovush tushadi yoki ortadi:

1) ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi: ayir, qayir kabi fe'llarda nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi; ba'zi so'zlarga **-ov**, **-ala** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'gindagi **i** aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rni, qorni, burni, ko'nglim, singlim, yarmi, qayril, ayiril, ulg'ay, sarg'ay, ikkov, ikkala* kabi.

100-mashg'ulot. 1. Nazmiy matnni ifodali o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibini aniqlang va izohlang.

Yurtim, Qomusingni varaqlab sening,
Vatanimga fidokor bo'lajak o'g'lim.
Quvonchim, ikki ko'zim, umidim mening,
Baxtiyor farzandim, bag'rim, seviklim.

(Mirtemir)

2. Tagiga chizilgan so'zlar ishtirokida gap yoki matnlar tuzing. So'z o'zagida hosil bo'lgan o'zgarishlarni aniqlang.

Tilingizni odob, tarbiyaga qarshi bo'lgan so'zlar aytishdan saqlasangiz: keksalar ko'ngli ranjimaydi; yuzlari sarg'ayib ikkala ko'zi xira tortmaydi; qayrilishlarda keskin burulishdan o'zini saqlaydi.

Aziz yoshlar, keksa bobo va momolaringizni asrang! Ular sizning suyanchig'ingizdir.

101-mashg'ulot. O'zingiz **-il**, **-ov**, **-ala** qo'shimchalari bilan yasalgan so'zlar ishtirokida matn yarating va izohlang.

2) **-ga**, **-da**, **-dan**, **-day**, **-dagi**, **-cha** kabi qo'shimchalar u, bu, shu, o'sha olmoshlariga qo'shilganda **n** tovushi orttiriladi: unga, bunga, bunday, o'shancha, shungacha; bu olmoshlarga egalik va kelishik qo'shimchalari qo'shiladi: shunimiz, buningiz, unisi, o'shandan, shunga, bunga kabi.

102-mashg'ulot. Matnda ajratib ko'rsatilgan otlarning tarkibini aniqlang va izohlang.

1. Hosilni **bunday** bir chamalab ko'ring. "**Unisi** bo'lmasa, **bunisi**" qabilida ish qilmang. **Shunda** mehnatlaringiz zoye ketmaydi.

("Odobnoma")

2. **Tuqqan** hisobmas, **boqqan** hisob (Maqol).

3. **Tuqqaniga** suyunma, **turganiga** suyun (Maqol).

4. **Olto'vlon** ola bo'lsa, **og'zidagin** oldirar,
to'rtovlon tugal bo'lsa, tepadagin undirar. (Maqol)

3) **o**, **o'**, **u**, **e** unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m**, **-ng**, **-si**, **-miz**, **-ngiz**, **-si** (lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi:

bobo →
orzu → -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si (lari);
baho →
imzo →


b) **parvo**, **obro'**, **mavqe**, **avzo**, **mavzu** so'zlariga egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi:

parvo →
obro' → -yini, -ying, -yi, -yimiz, yingiz, -si (lari)
mavqe →
avzo →
mavzu →

¹ Mavzu (a mavzu', 3-shaxs birlikda mavzun mavqet'. S. F. Akobirov, T. A. Aliqulov «Uzbek tilining izohli lugati». M. «Rus tili» nashr 1981. 439-bet

d) oxiri u bilan tugagan soʻzlarga III sh.da –si qoʻshiladi: koʻzgusi, qaygʻusi kabi;

e) oxiri y bilan tugagan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi:



103-mashgʻulot. Yuqoridagi boʻlimlar (a, b, d, e)dan 2 tadan soʻz tanlang va birlik, koʻplikdagi egalik qoʻshimchalarini qoʻshing. Qoʻshimchalarning tagiga chizing va tushuntiring.

4) *men, sen* olmoshlariga **-ni, ning, -niki** qoʻshimchasi qoʻshilganda bir n tushib qoladi: *meni, sening, seniki* kabi.

104-mashgʻulot. Tagiga chizilgan soʻzlarning yozilishiga diqqat qiling va izohlang.

1. Seni asta yonimdan olib,
Hayajonla tutamam unga...
2. Endi, sheʼrim shu kundan boshlab,
Sen meniki emassan tamom. (E.Vohidov)

Baʼzi qoʻshimchalarda birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi.

- **bon, - boz** qoʻshimchalari baʼzan **-von, -voz** aytilsa-da, asliga koʻra **-bon, -boz** yoziladi: *dorboz, darvozabon, qogʻozboz, buyruqboz* kabi.

- vachcha qoʻshimchalari doim shunday aytiladi va yoziladi: *boyvachcha, xolavachcha* kabi.

- oʻrin payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari va feʼlning zamon koʻrsatkichi koʻpincha jarangsiz undosh tovushdan soʻng t aytiladi, ammo aslida d yoziladi: *ishda, (ishta), boshdan (boshtan), ketdi (ketti), chiqdi (chiqti)* kabi.

105-mashg'ulot Tagiga chizilgan so'zlarni diqqat bilan o'qing. Talaffuzi va yozilishida farqli bo'lgan so'zlarni izohlang va yodda saqlang. Qavs ichidagi harf va qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Tantiboy(v,b)achcha nonushtadan so'ng pochapo'stinga o'ralib, ko'chaga chiq (di, ti), Salimboy(v,b)achchani uydin topish uchun qaynotasinikiga jo'nadi... Qarshisidan Olimxon ellik(v,b)oshi chiq (di, ti), uyiga taklif qil(di,ti).

Tantiboy(vb)achcha qo'lini ko'ksiga qo'yib, ellik(v,b)oshi bilan so'rashgach, xayrlashib, ildam yurib ket (di, -ti). (Oybek).

2. Mustaqillik bayramida boshqa san'atkorlar qatori dor(v,b)ozlar o'yini ham barchaga manzur bo'ldi.

Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi –illa, so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda –ulla aytiladi va yoziladi: lovulla, gurulla kabi.

106-mashg'ulot. 1. Taqlid so'zlardan fe'l yasovchi –illa, -ulla qo'shimchali so'zlar lug'atini tuzing. 2. Yasalgan so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar hosil qiling. 3. Hosil bo'lgan birikma va gaplar ishtirokida matn yarating.

Hovli etagidagi pastak eshik g'iyqilladi. Rangi unniqqan hilvillab qolgan chitko'ylakli Umri xola kirib keldi. Tashqaridan shamolning guvullashi eshitildi.

(O'. Hoshim)

2) jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarda ("kel"dan boshqa), yana z bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin **-dir**, qolgan barcha hollarda **-tir** aytiladi va yoziladi: *egdir, kuldir, yozdir, keltir, tiktir, chaqirtir* kabi.

107-mashg'ulot. 1. Yuqorida berilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzing. So'zlarning tarkibini aniqlab, qo'shimchalar imlosini farqlang, imlosini tushuntiring.

Namuna: Suv keltir. Qiziqchilik qilib rosa kuldirdi.

2. Inilo qoidalariga mos maqollar bilan quyidagi qatorni davom ettiring. Nisbat shaklini aniqlang.

Do'st achitib, dushman kuldirib gapirar.

O't kuydirar, yer to'ydirar. Mehnat baxt keltirar. Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til.

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi – **ga**, chegara bildiruvchi – **gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach**, **-guncha**, **-gani**, **gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek **-gina** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi.

a) **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka*, *yo'lakkacha*, *ko'nikkach*, *zerikkuncha*, *to'kkani*, *bukkan*, *ekkin*, *kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa*, *qishloqqacha*, *boqqach*, *chiqquncha*, *achchiqqina* kabi.

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat'iy nazar, **g** yoziladi: *bog'ga*, *tog'ga*, *bargga*, *bug'ga*, *sog'ga*, *og'gan*, *sig'guncha* kabi.

108-mashg'ulot. So'zlarga qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'shib ko'chiring va izohlang.

Sumalak, geolog, taq, o'rdak, burchak, taroq, pedagog, kurtak, yoq, ek, dialog, oyoq, buk, choriq, yog'liq, eg, tepalik, tiniq, chanoq, suvlik, uzoq, bog', tetik, oq, sog', tuk, andak, kelajak. (**-ga**, **-gacha**, **-gach**, **-guncha**, **-gani**, **-gudek**, **-gan**, **-gin**, **-gina**)

Namuna: tik-tikkan, tikkach, tikkuncha; yoq-yoqqan, yoqqani, yoqquncha, yoqqudek.

“Asos va qo'shimchalar” mavzusini takrorlash uchun matnlar

... Hijron panjalari uning tomog'idan bo'g'a boshladi. Avvaliga otasi: o'g'limning hamma ishlari joyida, o'z shahrida ishlaydi, -deb yurgan usta Nusrat bolasining yuragida bir sir-u asror borligidan ajablendi.

Zulfiqor bo'lsa parishonxayol, tushlarida alahsirar, ko'ngliga hech nima sig'mas edi. U Badianing fusunkor ko'zlarini, shaddodligini, sho'xligini, shirin odobini yoqtirib qolgan edi. (Mimnuhsin)

Inson go'zal... Na chaman bog'lar-u, na shabodalar tovushi, na yulduzlar-u javohir toshlar go'zalligi unga tenglasha olmaydi! Ammo insonda bebaho yurak bilan birga behis timog'-u achchiq istaklar ham bor.

Biz ko'proq yurakka quloq solishimiz kerak. Yurag-u ong insonni go'zal qilib turadi.

Odamlar nurga intilgandek donolik, insoniylik, mardlikni qadrlaydi.

Aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat, ruhiy kuch bilan bog'liqdir.

Inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.

Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlariga ega bo'lmog'i lozim.

Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari sababli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

... Bundan keyin har xususda man bilan yaktan bo'lib ishlasangiz, sizning qoshingizga bir zaruriyat yuzasidan kelsam, talabimni o'rniga qo'ysangiz... durustmi? – Tantiboyvachcha qo'lini uzatdi. Salimboyvachcha shartning ma'nosini darrov angladi. Noiloj uning qo'lini siqdi. Endi o'kinishning foydasi yo'q edi.

Tantiboyvachcha mag'rur va mamnun. Salim uning qopqoniga o'z xohishi bilan kirdi. Salimboyvachcha endi uning quli. Bundan ortiq zafar bo'lishi mumkinmi? Tantiga qarashli ikki muttaham yigit kecha kech Salimning ko'magi bilan Gulnorni xamirdan qil sug'urganday jimgina, qulaygina o'g'irlab chiqdi... Tantiboyvachchadan nima ketdi... "Ertalindin boyvachchadan o'n ming so'm olaman-vekselga qo'l qo'ysa bas. Uning imzosi-naqd pul"- deb quvonib borardi... (Oybek)

Yomon til boshga balo keltirar,
Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.

Tildan qoqilgandan ko'ra,
Oyoqdan yiqilgan afzal.

Achchiq til zahri ilon
Cuchuk tilga jon qurbon.

"So'z jon bo'lib, ruh uning qolpidir. Tanda ruhi bor odam zoti unga ehtiyoj sezadi... Aqlli odam yolg'on gapirmas, ammo barcha rost gapni ham aytaverish to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'aylat, nogirondir, ammo u aybdor emas... Birovni nohaq xijolatga solmoq o'z nodonligini isbot qilmoq va birov ko'nglini og'ritmoqdir...

(A.Navoiy)

Odob doirasidagi muomala ma'naviyatini o'zlashtirgan kishilarga farosatli, fahmli, odobli, aqlli, es-hushli, madaniyatli deb baho beramiz. Zero, odamning odobi dastavval uning tilida, keyin tili orqali bilimida ko'rinadi. O'rtiqcha talablar o'rnini qanoat bilan to'ldirish lozim. Qanoatli kishi aziz bo'ladi, degan bashoratli so'z bor.

(Hadisdan)

Qo'shib yozish

1. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, surat, talab kabi so'zlar qo'shib yoziladi: *dashxona, taklifnoma, jo'xoripoya, sovuqmijoz, devsfat, jigarrang, suvtalab, xushsurat*.

2. -(a) r, - mas qoshimchalari bilan tugaydigan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *ertapishar, qushqonil as tinchliksevar*.

3. takror taqlid so'zlarga qo'shimchalar qo'shish bilan: *hayhayla, (hay-hay-la), pirpirak (pir-pir-ak)*.

4. Narsalarni o'xshatish yo'li bilan boshqa bir narsaga nisbatlash yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar: *karmaygul, qo'ziqorin, bodomqovoq*.

5. Narsalarni ma'lum bir belgisi asosida bildiruvchi qo'shma so'zlar: *achchiqtosh, qizilishton, gultoj to'roz*.

6. Narsalarning biror maqsadli ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar: *tokqaychi, cho'chquti, oshnagona, kirsovun*.

7. Narsalarni joyga ko'ra aniqlaydigan qo'shma so'zlar: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon*.

8. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma so'zlar: *kelintushdi, kiryuvdi, Urto'qmoq, ochilgusturxon*.

9. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylinishi bilan yuzaga keladigan qo'shma otlar: *qovunqoqi, olmaqoqi, minghoshi*.

10. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod soʻzi bilan ifodalangan joy nomlari: *Yangiyoʻl, Xalqobod.*

11. Rus tilidan aynan oʻzlashtirilgan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan hosil qilingan qoʻshma otlar: *kinofilm, fotoapparat, telekoʻrsatuv, bayramoldi, suvosti.*

12. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qoʻshiladigan qoʻshimchalar qoʻshib yoziladi: *TDPUGa, OʻzMUga*

109-mashgʻulot. Quyidagi qoʻshma otlar qaysi qoida asosida qoʻshib yozilgan. Koʻchirib yozing va tushuntiring.

Kamaygul, qoʻziqorin, tokqaychi, buzoqboshi, qorakuch, olaqargʻa, oqqush, qizilurugʻ, qoramol, achchiqtosh, uchburchak, mingboshi, mingoyoq, qirqogʻayni, gulsafsar, kungaboqar, molboqar, koʻzoynak, nomozshomgul, gulbeor, oʻrinbosar.

Yangiyoʻl, Toʻrtkoʻl, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Kattaqoʻrgʻon, Kosonsoy, Qorabuloq, Oltinkoʻl, Toʻytepa, Yangiyer, Qizilqum, Dehqonobod, Sherobod.

110-mashgʻulot. Matnni yozing, qoʻshma soʻzlarning tagiga chizing. Qaysi qoidaga asosan yozilganini tushuntiring.

Tuyaqushlar asosan oʻt-oʻlan, shuningdek, hasharotlar va mayda jonivorlar bilan ovqatlanadi, gala-gala boʻlib yashaydilar.

Tuyaqush badnafs boʻlganligidan koʻziga koʻringan narsani yutaveradi. Afrikadagi fermalardan birida boqilayotgan tuyaqush oshqozonidan mix, temir parchalari, mayda toshlar, shisha, chinni siniqlari va boshqa narsalar chiqqan. (O.M.)

Beshiktervatar biror xavf-xatar paydo boʻlganida, gavdasini toshdek qotirib turib qimir etmay jim qoladi. Birdan chumchuq bolalari uyalarida besaranjom boʻlib chirqillashaveradilar. Ilon uyaga yaqinlashgan ekan, beshiktervatar ilonga nayzasini bir sanchibdi, ilon yiqilibdi. (ertak)

Chiziqcha bilan yozish

1. Juft va takror soʻz qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, omon-eson, kecha-kunduz, duk-duk, taq-taq, hamma-hammasi, bordi-keldi, ming-ming, qop-qop.*

Eslatma:

1) juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *uy-joyli, oyoq-qoʻlli*;

2) juft soʻz qismlari orasida **-u (yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi; *kecha-yu kunduz, osh-u non*.

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: *borasan-kelasan, kirasan-chiqasan, oldi-qoʻydi*.

2. Belgini kuchaytiruvchi koʻm-koʻk, qip-qizil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi.

3. Soʻzning **-ma, -ba** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *uyma-uy, rang-barang, dam-badam*.

4. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofiser, kilovatt-soat*.

5. **-chi, -a (ya), -ku, -u (yu), -da, e, ey (yey)**, yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, u-ya, akam-ku, kelasan-a, kattasi-da, qoy-e*;

-mi, -oq, (-yoq), -yov, -gina, (-kina, qina) yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: *koʻriboq, qiziqmi?, koʻrganov, sengina*.

111-mashgʻulot. Matnni koʻchirib yozing, chiziqcha qoʻyilgan qoʻshma va juft soʻzlarning tagiga chizing.

Kamtarlik

1. Kamtarlik insonga xos eng goʻzal fazilatlardan biridir. Kamtar deganda koʻz oldimizda mehnatsevar, xushmuomala, vazmin kishi namoyon boʻladi. Kamtar kishi oʻzidan kattani hurmat qiladi.

Kamtar kishi oddiy va ozoda kiyinadi, ortiqcha pardozi-andozlarga berilmaydi. Kishi koʻngli, xatti-harakati, muomalasi bilan goʻzal, oddiy, kamtar boʻlishi kerak.

Lekin kamtarlik har narsaga koʻnaverish emas. Kamtar kishi qatʼiy boʻlishi kerak. Kamtar kishi oʻrtoqlari bilan suhbatlashganda, munozaralarda hech qachon qoʻpollik qilmaydi.

Demak, kamtarlik oʻzaro munosabatlarda, muomala va xatti-harakatlarda namoyon boʻladi.

(Hadis)

2. Ota-ona uchun hamma bola birdek aziz, ammo qiz bolaning o'rni, mehri, ko'rki bo'lakcha bo'ladi. Qizi bor xonadon saranjom-u sarishta, fayz-tarovatli, kishining zavqi-shavqini keltiradigan darajada ozoda-yu orasta bo'ladi. Shu tufayli ham qiz bolaga uyda go'yo gul-u lola, onasining malhami-yu joni, xonadonning suyangan tog'i, ishongan bog'i deb nisbat beriladi.

112-mashg'ulot. Yuklama ishtirok etgan so'zlarning tagiga chizing, anglatgan qo'shimcha ma'nolarini tushuntiring.

1. Bu kitobni o'qib ko'r-chi, senga yoqadimi? 2. Ertaga-chi biz guruhimiz bilan muzeyga boradigan bo'ldik. 3. Mana bu g'azalni o'qib ko'ring-a! 4. Futbol o'iniga boramizmi? 5. Hashar-chi, uni kim bajaradi? 6. Yaxshi o'qish hammamizning burchimiz-ku.

7. Gar dilingga xulq-u, aql-u, ilm-u, vijdondir ustun,

Bu binoni sel ololmas mavjla girdobi bilan. **(Chustiy)**

6. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **nchi** qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yladi: 5-sinf, 6-"A" sinfi, 8-, 9-sinf o'quvchilari, 2001 - yilning 1-sentabri.

Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XXI asr, LX sinf kabi.

113-mashg'ulot. Matnni ko'chirib yozing.

Bilasizmi?

21-mart- "Navro'z" bayrami kuni

1989-yil 21-oktabr –"Davlat tili to'g'risida" gi Qonun qabul qilingan kun.

1991-yil 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.

1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasdiqlandi.

1992-yil 2-mart – O'zbekiston BMTga qabul qilindi.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasdiqlandi.

1992-yil 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1992-yil 10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Xalqaro YUNESKO tashkilotining 1999-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan sessiyasida 2001-yilda butun dunyoda muqaddas “Avesto” yozma yodgorligining 2700 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi.

Prezidentimizning 2000-yil 29-mart kunidagi Farmoniga ko‘ra, 2001-yil kuzida mamlakatimiz miqyosida ham “Avesto” ning 2700 yilligi keng va tantanali nishonlanishi ko‘zda tutilgan.

114-mashg‘ulot. Gaplarni ko‘chirib yozing, tartib sonlarning tagiga chizing.

1. 1 yil 365 kecha-kunduz, 5 soat, 48 daqiqa, 46 soniya ekan.

2. Mustaqilligimizning 10 yilligi nishonlanayotgan yil chinakam bayram yilidir.

3. 14 jildli O‘zbekiston Respublikasi Qomusining 1-jildini ko‘rib chiqdim, endi 2-jildini kutubxonadan olaman.

4. Ukam 3-sinfda o‘qiydi, men esa 4-sinfga o‘tdim.

5. Sharq adabiyotida birinchi bor 5 doston –“Xamsa” yaratgan va shu bilan xamsanavislikka asos solgan ulug‘ zot XII asrda yashagan ozarbayjon shoiri Amir Nizomiy Ganjaviydir.

XX asming 90-yillariga kelib O‘zbekiston jahon miqyosida iqtisodiy aloqa o‘rnatish sharafiga muyassar bo‘ldi.

Takroriy so‘zlar imlosi

Nutqimizda ayni bir so‘zni takror ishlatish noaniq miqdoriy ko‘plikni ifodalashga yoki ma‘noni kuchaytirishga xizmat qiladigan so‘zlar ham bor. Bunday so‘zlar takroriy so‘zlar deb yuritiladi va ular chiziqli bilan yoziladi: *qop-qop, qator-qator, bir-bir,* Takroriy so‘zlar -ma, ba – qo‘shimchalari bilan ham qo‘llaniladi va chiziqli bilan yoziladi: *uy-ma-uy, dam-badam, rang-barang, ustma-ust.* Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa bunday so‘zlar qo‘shib yoziladi: *ro‘baro‘, darbadar.*

115-mashg‘ulot. Quyidagi so‘zlar qatorini davom ettiring va ular ishtirokida gaplar tuzing:

1. tez-tez; 2. qator-qator; 3. baland-baland; 4. ming-ming; 5. olam-olam; 6. orqama-orqa; 7. ketma-ket.

116-mashg'ulot. Quyidagi gaplarni lotin alifbosida yozing, takroriy soʻzlarni topib maʼnosini tushuntiring.

1. У ҳаяжон билан тез-тез гапирар эди. 2. Унинг яхши-яхши гаплари, ширинсуханлиги ҳаммани ҳайратда қолдирди. 3. Кўкда баланд-баланд бинолар устида ой кўрипти. 4. Мен бунақа баҳслар тўғрисида қанча-қанча китоблар ўқиганман. 5. Иккита меҳмонхона қимматбаҳо нарсалар билан, яъни даста-даста кўрна-тўшақ, қўш-қўш гилам, мебеллар билан тўлган. 6. Ҳовли жуда кенг бўлиб, ранг-баранг гулларнинг атри димоққа уриларди. 7. Халқ мақолларида олам-олам маъно, теран фикрлар мужассамлашган. 8. Миришкор богбонларимиз янги-янги мева навларини етиштиришмоқда. 9. Кўлаб катта-катта, баланд-баланд турар жойлар, ранг-баранг миллий муассасалар, хилма-хил завод-фабрикалар барно этилди. 10. Улар эски, озодагина кўрна ёпилган сандал атрофига тиқилишиб, секин-секин суҳбатлашишарди.

117-mashg'ulot. Husnixat mashqi.

Farzandning ona oldidagi vazifasi

Ota-onalarimizni naqadar ortiq suymoq va ularni naqadar ko'p qadru qimmat qilmoq lozim bo'lajagini har bir vijdonli odamning bilishi shubhasizdir. Bir ona bolasini dunyoga keltiradi, tirikligining quvvati bo'lgan suti birla uni to'ydiradi, quchog'ida o'stiradi. Uning tarbiyasi-yu baxtli bo'lishi uchun jonu yuragidan tirishadi. Uning uchun chekmagan jafosi qolmaydi. Tirikligining so'nggi nafasiga qadar uni sevadi. Bolasining biroz boshi og'risa, uning salomatligini qaytarish uchun bor molu jonini beradi va unga har doim "jonim" deb murojaat qiladi. "Jannat onalarning oyog'i ostidadir" degan hadisi sharif onalarning naqadar ortiq hurmatu muhabbatga loyiq ekanini ko'rsatmoq uchun yetarlidir.

Ona qadrini keragida bilmoq uchun ona bo'lmoq lozimdir.

Bolalar onalaringizni sevingiz, ularga xizmat qilingiz. Onalar bolalarining boshida maqtoqli tojdirlar. Ularning xayru duolari bolalarning baxtli bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ajratib yozish

1. Ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'ra Osiyo, Ko'hna Urganch, O'ra Chirchiq.*

2. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sotib ol, olib chiq, olib ket*.

3. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, so'rab qo'y, ayta qol, borgan edi, kelgan ekan*.

Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *ayta ber- aytaver, bora oldi-boroldi, bilar ekan-bilarkan, ketar ekan-ketarkan*.

4. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *U bilan, shu uchun, kun sayin, borgan sari, shu bo'yi*. Lekin, *bilan, uchun* ko'makchilarining **-la, -chun** shakllari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, tong-la, siz-chun, o'qish-chun*.

5. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, bu yerda, o'sha yerda* kabi.

6. Sifat oldidan kelib belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l* kabi.

7. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, bir yuz ellik, sakson besh*.

8. *Yildan yilga, uydan uyga, tomdan tomga* kabi so'zlar ajratib yoziladi:

9. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, ochiqdan ochiq, tekindan tekin* kabi so'zlar ajratib yoziladi.

10. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Izofa¹ undosh bilan tugagan so'zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga **yi** shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, shahri azim, oynayi jahon, baloyi nafs, tarjimayi hol*.

118-mashg'ulot. Gaplarni ko'chiring, ajratib yozilgan qo'shma ot, qo'shma fe'l, ko'makchili fe'l ko'makchi ishtirok etgan so'zlarning tagiga chizing.

1. O'rta Osiyolik olimlar jahon madaniyati va faniga munosib hissa qo'shganlar.

2. Sharqiy Xo'jandda o'zbek shevalarining o'ziga xos xususiyatlari bor.

3. Muhammad Yusuf xalqini e'zozlagan, xalqini sevgan inson edi.

¹ Izofa (a)l) qo'shish, bog'lash, turkash,

fors, arab va ba'zi turkiy tillar grammatikasida aniqlanmish bilan undan keyin joylashgan aniqlovchini bog'laydigan urg'usiz bog'lovchi element.

4. Amur Temur nihoyatda shijoatli, dovyurak odam edi.
5. Tinchlik uchun, xalqimizning baxt-saodati uchun g'ayrat bilan ishlaymiz.
6. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Toshkent yerosti yo'lining yana besh bekatida poyezdlar qatnovining yo'lga qo'yilishi poytaxtliklarga bayram armug'oni bo'ldi.
7. Poytaxtimiz Toshkent O'rta Osiyodagi eng go'zal shahar, eng yirik savdo va sanoat markazi hisoblanadi.

119-mashg'ulot. Ajratib yoziladigan qo'shma, sifat, ravishlar va murakkab so'zlarning tagiga chizing, qaysi qoida asosida yozilganini tushuntiring.

1. Bu yerlarda yashash va mehnat qilishning o'zga gashti bor.
2. Hamma yoqda so'lim va osuda yoz kechasi hokim.
3. Mashhur olimlar, shoirlar, me'morlar va san'atkorlar shu yerda yashardilar.
4. Quyosh botishi bilan hamma yoq qop-qorong'i bo'lib qoldi.
5. Insonning yuragi yigirma to'rt soat ichida yuz ming martaga yaqin uradi.
6. Yer Quyosh atrofida har daqiqada bir ming yetti yuz qirq uch kilometr tezlik bilan aylanadi.
7. Tog'da tong otishini kuzatish juda ajoyib bo'ladi: dastlab tog'ning eng baland cho'qqilari och pushti rangda tovlanadi, keyin oqish osmon och ko'kintir tusga kiradi.

Bosh harflar imlosi

1. Kishilarning ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Farida, Aziza, Odilova, Navoiy, Furqat, Qoravoy, Chaqqonoy* kabi.

120-mashg'ulot. Bosh harf bilan boshlanadigan so'zlarning tagiga chizing va tushuntiring.

1. Eng qadimgi turkiy xalq qo'shiqlari bizga qadar qomusiy bilim sohibi Mahmud Qoshg'oriyning "Devoni lug'atit turk" asari orqali yetib kelgan.
2. So'z ichra Navoiyki jahongir turur,
Munisga maoniy yo'lida pir turur. (**Munis**)

3. Navoiy o'zbek tili uchun kurash bayrog'ini yuqori ko'targan shoirdir.

4. Alisher yo'lda uchragan mehmonlar bilan salomlashdi. Karvonsaroy qayerdaligini tushuntirdi.

5. Balli yigit! Qovun qoqi yeysizmi? Bu qovun qoqi Marvning qovunlaridan qilingan.

6. Alisher Mashhadda o'qish va ijod qilish bilan band edi.

7. Menga Pushkin bir jahon-u,

Menga Bayron bir jahon-

Lek Navoiydek bobom bor,

Ko'ksim osmon o'zbekim.

8. Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi.

9. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, u inson kamoloti haqidagi ta'limoti bilan ta'lim-tarbiya sohasida ham o'z o'rniga ega

121-mashg'ulot. She'rni husnixat bilan ko'chirib yozing, yod oling, ulug' siymolar nomini unutmang.

Mangu nomlar

O'chmas yer yuzida Buxoro nomi,

Toki yashar ekan Buxoriy nomi.

Mangu esaverar Termiz yellari,

Toki nur taratgay Termiziylari.

O'pdi bu tuproqdan neki jon bordir,

Hazrat Yassaviy bor- Turkiston bordir.

Amudaryolari abadiy azim,

Manguberdilari mangu Xorazm.

Ulug' Temurxonning shavkatu shoni

Shahrisabz, Samarqand -jahon ayvoni

Dunyo g'urbatiga nazar tashlablar,

O'tdi Boburlar-u o'tdi Mashrablar.

(Sirojiddin Sayyid)

2. Joy nomlari shaharlar, qishloqlar, dara va tog'lar, tepalar, daryolar, mamlakatlar, qal'alar, yaylovlar bosh harf bilan yoziladi: *Amudaryo, Chirchiq, Yangiyo'l, Ellikqal'a*.

122-mashg'ulot. Gaplarni ko'chiring, joy nomlarining tagiga chizing.

Joy nomlariga qo'shimcha

1. Xivadagi "Ichon qal'a" va Buxoro shahrining tarixiy markazidan so'ng qadimiy Shahrisabz ham YUNESKOning Butunjahon Merosi ro'yxatiga kiritildi.

2. Marv—O'rti Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Bayramali shahri yaqinida Murg'ob daryosi qirg'og'ida Marvning qoldiqlari beshta qal'a: Erk qal'a, Gavr qal'a, Sulton qal'a, Abdullaxon qal'a, Bayramalixon qal'a xarobasidan iborat.

3. Sobir Tyanshan tog'idagi sehrli g'or haqida ko'p eshitgan.

4. Oradan ikki soat o'tmay o'n olti boladan iborat yosh sayyohlar guruhi Ko'ksoy yoqalab o'tgan so'qmoq bo'ylab yo'lga tushdik. Rejaga muvofiq, ikki kun yurib Qirqqiz cho'qqisini ishg'ol qilishimiz lozim edi.

5. Qirqqiz qal'asi (9-asr) Termiz yaqinidagi arxitektura yodgorligi xarobasi.

123-mashg'ulot. Husnixat mashqi.

Shahrimiz

Surxondaryo qadimda, eramizdan avval madaniyat va san'atning eng rivojlangan markazlaridan biri bo'lgan. Lekin bosqinchilar uni shunchalik xarob qilganki, u asrlar davomida o'zini o'nglay olmagan.

Iskandar yurish qilib kelayotganida tog'lar orasida joylashgan Sangardagimizni ko'rib qolgan. Sangardak (Surxondaryo immog'i) Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy yon bag'ridan boshlanadi. Sangardak shunday go'zal ekanki, uni tor-mor qilishga Iskandarning ko'zi qiymagan. Lekin biznikilar taslim bo'lmagach, Iskandar maxsus tayyorlangan qism bilan hujum boshlagan va shaharni kunpayakun qilganlar. Obod shahar o'mida kultepla paydo bo'lib qolgan. Shundan keyin shahrimizni Yetimtepa deb atay boshlaganlar. Hozir mana shu ikki gektarlik tepalikni Yetimtepa deb ataydilar. (Sh.X.)

Hisor tizmasi—Oʻrta Osiyodagi togʻ tizmasi. Pomir-Olay togʻlarining gʻarbiy qismida, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarining suv ayirgʻichi. Hisor tizmasining markaziy qismida xushmanzara Iskandar koʻl joylashgan.

Topshiriq. Siz yana qanday tarixiy joy, daryo, tepa, dara, qalʼa, togʻ... nomlarini bilasiz? Yozib keling.

3. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi) Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi)*

124-mashgʻulot. Matnни yozing, bosh harf bilan yozilgan otlarning tagiga chizing va tushuntiring.

Bilasizmi?

1. Qadimgi Yunon olimi va mutafakkiri Aristotel (miloddan avval 384-322) Yerning sharsimonligi haqida birinchi dalil koʻrsatgan boʻlsa, ulugʻ qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Yerning sharsimon shaklda ekanligini Oʻrta Osiyoda birinchi boʻlib isbotlagan.

2. Abu Rayhon Beruniy geotsentrik¹ nazariyani rad etib, geliotsentrik² nazariyani ilgari surgandan keyin Quyosh Yer atrofida emas, balki Yer Quyosh atrofida aylanadi, degan fikr tarqala boshlagan. (O.M.)

3. Ulugʻbek takomillashgan kuzatish va oʻlchash asboblari yoʻqligiga qaramay Quyosh va Oy harakatlarini toʻgʻri hisoblagan, uning hisoblari hozirgi hisoblardan juda oz farq qiladi.

4. Quyosh atrofida aylanuvchi katta sayyoralarning oltitasi: Merkuriy-Utorid nomi bilan, Venera-Zuhra yoki Choʻlpon nomi bilan, Mars-Mirrix, Yupiter-Mushtariy, Saturn-Zuhul nomi bilan va Yer insoniyatga juda qadimdan maʼlum.

5. Uran bilan Neptun ancha keyinroq topilgan. Pluton esa 1930-yilda kashf etildi. (O.Moʻminov)

6. Munajjimlik ilmidan maʼlumki, Oy Yerning doimiy yoʻldoshidir. Bu samoviy jism yogʻdulari oʻzini emas, balki Oy Quyoshdan nur olib, oʻsha yogʻdularni Yer shari tarafga yoʻnaltiradi.

¹ Geotsentrik sistema- dunyoning markazi Yer, boshqa hamma osmon jismlari Yer atrofida harakatlanadi, degan qadimgi dunyoqarash (bu sistemani dastlab Aristotel ishlab chiqqan)

² Geliotsentrik sistema- Yer ham boshqa sayyoralar singari Quyosh atrofida va oʻz oʻqi atrofida aylanib chiqadi degan taʼlimot

7. Yer yuzidagi hayot esa samoviy jismlar: Quyosh, Oy, Yulduz orqali harakatga keladi. (Ma'rifat gaz.)

8. Yer Quyosh atrofiga bir yilda bir marta aylanib chiqadi. Shu davrda u o'z sirtini Quyoshga har xil vaziyatda "tutib" beradi. Quyosh osmonda baland ko'tarilganda, uning nurlari Yerga to'g'ri tushib, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh uncha baland ko'tarilmay uning nurlari Yerga qiyalab tushganda Yerni paypaslab o'tib ketgandek bo'ladi va Yer yuzida sovuq turadi. ("Bolalar qomusi")

9. Osmonga chiroqsan, Oymoma.

Nimaga yiroqsan, Oymoma?

Yulduzni yetaklab yurasan,

Nuringni etaklab berasan.

(U.Abduazimova)

4. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga. adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "Chorsu" (mehmonxona), "Navro'z" (xayriya jamg'armasi), "G'uncha" (bog'cha), "Paxtakor" (stadion), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy) "Chinobod" (sanatoriy), "Kecha va kunduz" (roman).

125-mashg'ulot. Quyida berilgan nomlar bilan gap tuzing va izohlang.

Majolis un nafois", "Muhokamat ul-lug'atayin", "Amir Temur" (haykal), "Oqsaroy" (yirik nodir obida), "Jasorat" (yodgorlik), "Botanika" (sanatoriy), "Tanovar", "Paxtakor", "G'uncha", "Umid" (jamg'arma)

Husnixat mashqi

126-mashg'ulot. Gaplarni ko'chiring, so'ng ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan ajratib yozing.

1. M.Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi YUNESKO tarkibidagi milliy raqs dastasiga a'zo bo'ldi.

O'zbekistonda 1989-yili "Tanovar" o'zbek raqs teatri tuzildi. Bu jamoa "Temuriy malikalar", "Ulug'bek burji", "Nodirabegim", "Bibixonim" kabi ko'plab teatrlashtirilgan tarixiy va zamonaviy bir-biridan jozibador milliy raqslar bilan barchaning e'tiborini tortib kelmoqda.

2. She'r yodlaydi Ozoda, "Lazgi"ga o'ynar Nodira.

3. "Navro'z" bayramida o'tkaziladigan xalq tomoshalari: Farg'onada "Katta masxarabozlik", Buxoroda-"Chavqi", Xorazmda-"Xatarli o'yin" nomi bilan yuritilgan. "Sumalak" "Navro'z"ning shohona taomi.

4. "Sumalak sayli" xalq bayrami sifatida katta tantana bilan o'tkaziladi. "Navro'z"da xursandchilik bilan "Boychechak", "Chamanda gul", "Yomg'ir yog'aloq", "Do'lana", "Oltin belanchak" qo'shiqlari ijro etiladi, shuningdek, "Boylandi", "Oltin belanchak", "Chittigul" kabi xalq o'yinlari bolalarni xursand qiladi.

5. Iste'dodlarimiz ijrosidagi "Kelinchak", "O'zbekiston", "Dunyo", "Lola", "Sumalak" qo'shiqlari el e'tiboriga tushib qoldi, ijrochisi esa "Nihol" mukofotiga tavsiya etildi.

6. "Mustaqillik maydoni"miz kun sayin g'o'zallashib bormoqda.

7. "Guliston" jamoa xo'jaligining ishlari tahsinga sazavor.

8. Biz u bilan "Jayron" ekologik markazida tanishdik.

9. "Umid" yo'llanmasi bilan chet ellarda o'qib kelgan o'g'il-qizlarimiz Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi yo'lida sadoqat bilan mehnat qilishlariga ishonamiz.

127-mashg'ulot.

1-vazifa. Qavs ichida berilgan mualliflar nomini o'z o'rniga qo'yib, asar nomlarini yozing.

1."Farhod va Shirin", 2."Navoiy", "Qutlug' qon", 3."Chingizxon", 4."Qo'rqinchli Tehron", 5."Shaytanat", 6."Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", 7."So'na", 8."Chinor", 9."Asror bobo", "Bemor", "O'g'ri", 10."Graf Monte Kristo", 11."Farg'ona tong otguncha", 12."Alpomish", 13."Otamdan qolgan dalalar", 14."Choliqushi", 15."Djen Eyr", 16."Kecha va kunduz", 17."O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", 18."Sherlok Xolms" 19."Boburnoma", 20."Yulduzli tunlar".

1. V. Yan, 2. M. Kozimiy, 3. A. Qodiriy, 4. Oybek, 5. A. Konan Doyl, 6. E. Voynich, 7. A. Dyuma, 8. Z. M. Bobur, 9. Tog'ay Murod, 10. Rashod Nuri Guntekin, 11. Tohir Malik, 12. Pirmqul Qodirov, 13. O'tkir Hoshimov, 14. Abdulla Qahhor, 15. Fozil Yo'ldosh o'gli, 16. Mirzakalon Ismoilii, 17. Sharlotta Bronte, 18. Cho'lpon, 19. Alisher Navoiy, 20. Asqad Muxtor.

2-vazifa. Yuqorida berilgan asarlardan o'zingiz o'qiganlaringizni muallifi bilan ajratib yozing.

3-vazifa. O'qigan asarlaringizdan esingizda qolgan biror obraz yoki voqea asosida matn tuzing.

5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroʻz bayrami* kabi.

128-mashgʻulot. Husnixat mashqi. Koʻchiring, tagiga chizilgan, nomlarning yozilishi va imlosiga eʼtibor bering.

1. Har yili ulugʻ ayyom-Mustaqillik kunini katta tayyorgarlik, zoʻr shodlik bilan kutib olamiz.

2. Jonajon Oʻzbekistonimizning oʻqituvchi va murabbiylarini umumxalq bayrami – Oʻqituvchilar va murabbiylar kuni bilan muborakbod etamiz.

Xalq ichinda sizlar ziyo ahlisiz.

Shu uchunkim millatimiz faxrisiz.

Oh. demakkim maqtanishga haqlisiz,

Qutlug boʻlsin bayramingiz ustozlar.

3. 8-dekabr umumxalq bayrami – Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni.

4. Har yili yurtimizga Yangi yil zoʻr tantana bilan kirib keladi. Barchamizga, ayniqsa, bolalarga quvonch, shodlik keltiradi.

5. Ulugʻ ayyomingiz – 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan tabriklaymiz.

6. Onajonim, muborak Ramazon hayiti – ulugʻ ayyomingiz qutlugʻ boʻlsin.

Muborak Iyd al-Fitr munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomiga turli mamlakatlardan samimiy qutlovlar keladi.

7. Yangi kun – “Navroʻz” yaralishning birinchi kuni behuda muqaddas sanalmagan. “Aytishlaricha, Navroʻz – xudo mahluqotni yaratgan olti kunning birinchisidir”.

(Beruniy)

Navroʻz!

Assalom, ey Navroʻz, yilimiz boshi,

Kunlar va tunlarning tarozi-toshi.

Xalqimning tabarruk sumalak oshi

Bilan toʻlib kelding, xush kelding

(R.Baqoyev)

8. 9-may-Xotira va qadrlash kuni bayram sifatida xalqimiz turmush tarziga tez singishib ketdi.

Xotira muqaddas ajdodlar ruhi,
Istiqlol yo'lini yoritgan mayoq.
Avlodlar qalbining yongan chirog'i,
Zafarlarga eltgay qo'llarda bayroq.

6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi. O'zbekiston Respublikasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi.

129-mashg'ulot. Husnixat mashqi. Tagiga chizilgan so'zlarning imlosiga e'tibor bering.

1. O'zbekiston xalqi nomidan faqatgina u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. (K. 10-modda)

2. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. (K. 41-modda)

3. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. (K. 70-modda)

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega. (K. 71-modda)

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylanish huquqiga saylov kunigacha 25 yoshda bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari egadirlar. (K. 77-modda)

6. Vazirlar Mahkamasi tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

7. Davlatning oliy darajadagi mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi.: "O'zbekiston Qahramoni", "Oltin Yulduz" (medal) "Mustaqillik" (orden).

Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: "Sog'lom avlod uchun" (orden), "O'zbekiston iftixori", "O'zbekiston xalq rassomi" (Faxriy unvon) kabi.

130-mashg'ulot. Quyidagi Davlat mukofoti nomlarining imlosiga e'tibor bering, husnixat bilan yozing.

“O‘zbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal), “Mustaqillik” (orden), “Sog‘lom avlod uchun”, “Shuhrat” (medal), “Do‘stlik” (orden), “Jasorat” (medal), “O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi”, (Faxriy unvon), “O‘zbekiston iftixori” (Faxriy unvon), “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi”, (Faxriy unvon), “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” (Faxriy unvon), “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” (Faxriy unvon), “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi” (Faxriy unvon)

8. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi: Choy odamlarga juda qadim zamonlardan ma’lum. Kishilar choyni dastlab dori o‘midagina iste’mol qilishgan. (O.M.)

131-mashg'ulot. Husnixat mashqi. Gaplarni ko‘chiring, bosh harfda yozilgan so‘zlarni izohlang. Tinish belgilarga e'tibor bering.

1. Bir yil mobaynida, - deb yozadi Sharofiddin Ali Yazdiy, - Bag‘dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o‘z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak-atrofdagi dehqonchilik o‘ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakrga topshirildi.

2. “Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham,-deydi Amir Temur Ko‘ragon, o‘z o‘g‘itlarida, - aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab fikrlarini bilmoq lozimdir”.

3. Abdulla Qahhor jilolarga boy qudratli iste’dodini butunlay xalqqa bag‘ishlagan, - deydi taniqli adabiyotshunos olim Ozod Shārafiddinov. Uning asarlari xalqimizning yanada yuksak, yanada go‘zal bo‘lishi uchun hamma joyda insoniylikning, tafakkurning, pokiza tuyg‘ularning tantanasi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun A.Qahhorga qalb to‘ridan joy bergan.

4. Bu tilni sherning sheri mudofaa qilar ekan, yana qaysi mard aksini isbot qilur?-dedi kulib Husayn Boyqaro.

- Janoblari o‘z nodir asarlari bilan tilimizning husnini, quvvatini donishmand xalq oldida namoyon etdilar. (O.)

5. Xurmo -- parvarishtalab daraxt. Arab xalqida shunday bir naql bor: “Xurmo cho‘l malikasi, uning oyog‘i suvda, boshi olovda”. (O.M.)

6. Mening Vatan ichra vatanlarim bor,

Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.

Termiziylar yanglig‘ xazinalarim,
Buxoriylar kabi gavharlarim bor.

(S. Sayyid)

9. Tarkibli nomlarning bosh harflaridan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba’zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi.

Qisqartma tarkibida bo‘ginga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)

132-mashg‘ulot. Qisqartma otlarni to‘liq nomi bilan birgalikda yozing.

XDPMK, 2. OO‘Yu, 3. KTMD, 4. ITI, 5. O‘MKHT, 6. ToshDTU, 7. O‘zMU, 8. SamQXI, 9. NDPI, 10. TDTI, 11. OTB, 12. OTV, 13. IMK, 14. MDU, 15. YeXHT, 16. O‘zAS, 17. XTB, 18. DTM, 19. XTV, 20. RTM, 21. YaPT, 22. RO‘MM, 23. TTZ.

(O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, Ilmiy tadqiqot ishlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Toshkent davlat texnika universiteti, Oliy o‘quv yurti, Xalq demokratik partiyasi Markaziy Komiteti, O‘zbekiston milliy universiteti, Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti, Oliy ta’lim boshqarmasi, Navoiy davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat tibbiyot instituti, Xalq ta’lim boshqarmasi, “ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, Yevropa xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Moskva davlat universiteti, Oliy ta’lim vazirligi, yangi pedagogik texnologiya, Davlat ta’lim markazi, Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi, Respublika o‘quv-metodik markaz, Toshkent traktor zavodi, “Ilmiy metodik kengash”).

Ko‘chirish qoidalari

1. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *ki-tob, sa-noat, sano-at, is-lohot, islo-hot, mus-taqillik, musta-qillik, mustaqil-lik*.
Tutuq belgili so‘zlarda bo‘g‘in k‘hiritishda tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoladi: *ma‘no, mas‘ul, san‘at, be-e‘tibor, bee‘ti-bor*.
2. Tutuq belgisi so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirishda tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoladi: *ma‘- no, mas‘- ul, san‘- at, be- e‘ti- bor, bee‘- ti- bor*.

3. Soʻz boshidagi va soʻz oxiridagi bir harfdan iborat boʻgʻinlar koʻchirilmaydi: *adolat- a- do – lat* emas, *ado- lat*; *mutolaa – mu- to- la- a* emas, *mu- to- laa*
4. Oʻzlashma soʻzlar orasida ikki undosh qator kelsa: *monografiya mo- no- gra- fi- ya* kabi koʻchiriladi.
5. Harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda koʻchiriladi: *bo-shoq, mash'- al, uch- moq, che- chak, so'ng- ra.*
6. Qisqartmalar va koʻp xonali sonlar- raqamlar satrdan- satrga boʻlib koʻchirilmaydi: *TDPU, BMT, 2004, 180, XX, 15* kabi
7. *100m., 15sm., 7- "A"* kabi raqam va shartli belgilar boʻlib koʻchirilmaydi
8. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga koʻchirilmaydi: *"Andijon - 9", "O'qituvchi - 2004"*
9. *P Aliyeva, Q. S. Odilova, B. L. Ahmedov* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib koʻchirilmaydi.

133-mashgʻulot. Quyidagi soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish qoidasiga koʻra ajratib yozing.

Ayyom, aqliy, badiiy, bilim, baland, valuta, vazelin, valineʼmat, glukoʻza, glitserin, daʼvogar, dirijor, felyeton, fransuz, gulraʼno, hayot, intervyu, intizom, jarayon, kastrulka, leytenant, laʼli, masʼul, masʼuliyat, muvaffaqiyat.

10. Soʻzlarning bosh yoki oxirgi boʻgʻini bir harfdan iborat boʻlsa, ular quyidagicha koʻchiriladi:

1) soʻz boshidagi bir harfdan iborat boʻlgan boʻgʻin yolgʻiz oʻzi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-dabiyot* emas *ada-biyot*; *a-dolat* emas *ado-lat*; *i-roda* emas *iro-da* kabi;

2) soʻz oxiridagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi keyingi satrga koʻchirilmaydi: *badi-a* emas *ba-dia*; *mudofa-a* emas *mudo-faa*; *radi-o* emas *ra-dio*; *kaka-o* emas *ka-kao*; *mudda-o* emas *mud-dao* kabi;

3) soʻz oʻrtasidagi boʻgʻin bir harfdan iborat boʻlsa, u oldingi yoki keyingi boʻgʻinga qoʻshiladi: *mu-o-mala, muo-mala, mu-omala, shu-a-ro, shua-ro, shu-aro; a-e-rodrom, ae-rodrom* kabi.

11. Koʻchirilmaydigan soʻzlar:

1) bir boʻgʻinli soʻzlar: *mehr, tinch, ming, gramm, bayt, qand, aro, gap, akt, asl, aql, qirg, adl, asr.*

2) ikki bo'g'inli so'zlar: *ishonch, ovoz, olov, etik, eshik, e'lon, oziq, obod, ekin, imo, ipak, ari, omi, uyat, ota, ona, opa, aka, aya, omon* kabi.

134-mashg'ulot. So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'lib yozing.

Aqida, ayanch, olu, olov, ovoza, fojia, geolog, geografiya, qal'a, odob, atoqli, qur'a, dialog, abadiyat, ahamiyat, oyi, jamoa, poema, zoolog, duoxon, toifa, uyushiq, uyushma, uyalish, tabiatan, a'lo, ibo, imo, a'zo, daf'atan.

12. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi;

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'shiriladi; *dia-fragmenta, dia-gramma, mono-grafiya*;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *kon-gress, silin-drik, mar-shrut, tran-sport* kabi.

3) So'z o'rtasida ikki bir xil unli yoki undosh qator kelsa, birinchisi oldingi bo'g'inda qoladi; keyingisi satrga ko'chiriladi: *ham-ma, tanaf-fus, talaf-fuz, ta-aj-jub, ta-as-surot* kabi.

135-mashg'ulot. So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra ajratib yozing.

Telegrafist, marshrut, monografiya, stenografiya, taalluqli, tabarruk, tabassum, etnografiya, transport, tipografiya, tanaffus, novvoy, bankrot, forstrot¹, fotografiya, kalligrafiya, progress, kongress, trampin², elektrik, novvot, kollej, absess, kompress, kontrakt, astrolog³, konstruktiv, telegramma, fonogramma, kontramarka, nomenklatura⁴, otkritka, labbay, mahalla, chinni, bissektisa⁵, qimmat, g'alla, qattiq, taassurot.

13. Ye, yo, yu, ya mustaqil tovushlar birkmasi ishtirok etgan so'zlar satrdan satrga quyidagicha ko'chiriladi:

1) ye (e); *ye-tuk, ye-mish, ye-lim, fel-yeton, felye-ton, atel-ye*;

2) yo (ë) *yo-qut; ba-yon, ay-yom, dun-yo*;

¹ Forstrot- juft-juft bo'lib o'ynaladigan tansa va uning musiqasi.

² Trampin-sport, sakrash uchun mo'ljallangan maxsus taxta;

³ Astrolog-munajjim;

⁴ Nomenklatura-fan, san'at, texn. va b da qo'llanadigan atamalar majmui;

⁵ Bissektisa-burchakni teng ikkiga bo'lgan to'g'ri chiziq

3) yu (ю) *yu-rak, af-yun, ka-yuta, kayu-ta.*

4) ya (я) *ya-shil, ji-yak, ya-yov, mi-ya, so-ya.*

136-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni so'z ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'lib yozing.

Yetuk, yegulik, yelkan, yetti, yengildi, ayyor, sayyora, yomg'ir, piyoz, daryo, yozma, pecheniye, razyezd, me'yor, kimyo, kleyonka, konveyer, ashyo, ungan, yulduz, kompyuter, yayov, yaylov, yalpiz, yassi, bo'yoq, yeryong'oq, yetuklik.

Lug'at diktant

Yeyishli, ashyo, muyulish, buyurmoq, kompyuter, yumush, yurt, parashut, salut, rukzak, sujet, budjet, adyutant, sentabr, madhiya, qoya, noyabr, mavze, jome, yetmish, pyesa, yelkan, yelka, yelpig'ich.

14. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: *ba-shar, be-shik, yosh-lik, tinch-lik, ke-cha, ich-ki, si-ngil, singlim, so'ng-ra.*

137-mashg'ulot. So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'lib yozing.

Mingchi, bashorat, boshqoq, ixcham, ishbay, boshchilik, donishmand, jangchi, changchi, ishkoin, ishchan, ishchi, kashta, kashfiyot, kelishik, koshona, boshqar, yengil, qaynsingil, ko'ngil, kashnich, kechirim, ko'chmanchi, ko'chat, luchchak, tashakkur, pishloq.

138-mashg'ulot. Quyidagi so'zlarni kirill yozuvidan lotin yozuviga o'giring, so'ng bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Ошпицоқ, мачит, машина, машъала, машхур, мушук, нишона, ошпаз, муштум, нишолда, ошхона, печка, печакгул, пичоқ, тонги, онгли, китобингни, ўқишингиз, чанги, рангли, жарангли, опангни, танга, кенглик, ошқозон, ошён, парашют, пашмак, подшоҳ, ташаббус, равшан.

139-mashg'ulot. Husnixat mashqi. Matnni ko'chiring, sh, ch, ng ishtirok etgan so'zlarning tagiga chizing, so'ng ularni bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Qalam va uning xosiyatlari

Donishmandlar qalamni mulk bezagi va qalb maktubi deganlar.

Xalifa Ma'mun aytganki: "Qalamga Allohning marhamati bo'lsin. Mening boshim mamlakatni qalamsiz qanday idora qiladi? U mukosot va maoshga intilmay irodaga xizmat qiladi. Uning oqligi qorong'ulashtiradi; uning qoraligi esa munavvar etadi.". Xatni muomalaga kiritgan birinchi odam Taxmuras edi.

Suxan fazilatga ega, ammo yozish iqtidoridan bebahra odam yarim odamga o'xshaydi, chunki sohibqalamlik fazilati yuksak fazilatdir va hech qanday fazilat unga teng kelmaydi. U insonni inson darajasidan farishta darajasiga ko'taradi... (U.Xayyom)

15. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chiriladi: *AQSH, BMT, TDPU, XTB, O'zDJTU, AXSSU, TDIU, ToshMI*.

140-mashg'ulot. Yuqoridagi qisqartma otlarni to'liq yozing.

Namuna. AXSSU –Amerika xalqaro sog'liqni saqlash uyushmasi;
OO'MT- Oliy o'rta maxsus ta'lim;
O'MKNT – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
O'zAS- "O'zbekiston adabiyoti va san'ati".

Topshiriq. Beshta qisqartma so'z toping va uni to'liq yozib keling.

16. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 9-*"A" sinf, II "B" guruhi, 100gr, 10 m, 20 sm, 80 mm* kabi.

17. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *"Adabiyot-2003", "Chayka-207" (televizor), "Navro'z"-2003, "Yosh metodist-2002", "Olimpiada-2002", "O'qituvchi-91", (ko'rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g'o'za navlari).*

S.K. Abdullayev, F.T. Malikov, G.M.Yahyoyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harflariga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi.

Shuningdek, v.b. (va boshqalar) sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

141-mashg'ulot. Husnixat mashqi.

1991-yil 1-sentabrda boshqa jumhuriyatlar qatorida O'zbekiston ham o'zining milliy mustaqilligini e'lon qildi. Har yili 1-sentabr bayram qilinadigan bo'ldi. Shuning uchun ham O'zbekistonning yangi davlat bayrog'i tanlandi. Nega aynan o'sha namuna tanlangani va undagi ranglar hamda tasvirlar qanday ramzlar ekanligini hamma bilavermasa kerak.

Bayroqning moviy ko'k rangi osmon va tiniq suv, ya'ni ko'kdagi hayot manbalari ramzidir.

Oq rang tinchlik va poklikni bildiradi.

Yashil rang yashab turgan hayot va hosildorlikni ifodalaydi. Qizil chiziqlar har bir tirik jonzod tanasida mavjlanib turgan tiriklik manbai-kon ramzi hamda yer-u osmonni bir-biriga bo'g'lab turuvchi tiriklik rishtalaridir.

Yangi oy ko'p yillik an'analarimizga mos bo'lishi bilan birga, yangi paydo bo'lgan mustaqillik nishonasi hamdir.

Yulduzlar hamma xalqlarda tiniq osmon belgisi, ya'ni saodat ramzidir. Ularning 12 ta ekanligi osmondagi 12 ta yulduz burji bilan bog'liq.

Hikmatli so'zlar

Go'zallik tuyg'usini singdirmay turib, to'laqonli barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas.

R. Tagor.

Boshqalarni o'qitib, o'zimiz ham o'qiymiz.

Seneka.

O'qitish ikki barobar o'qish demakdir.

J. Juber.

Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun nimani o'qitsang – o'shanga, kimni o'qitsang – o'shalarga mehr qo'ymog'ing zarur.

B. O. Klyuchevskiy.

Agar odamdan ko'p narsani talab etmasang, ko'p narsani ololmaysan ham.

A. S. Makarenko.

Namunasiz to'g'ri o'qitish ham, yaxshi o'qish ham mumkin emas.

L. Kolumella.

Haqiqiy tarbiya qoidalarda emas, mashqlardadir.

J. J. Russo

Istamay mutolaa qilayotgan talaba – qanotsiz qush.

Sa'diy.

Millat aytgan so'zni takrorlash bilan uning izdoshi bo'lib qolaverish qiyin.

D. I. Pisarev.

Har qanday chuqur bilim faqat mustaqil o'qish yo'li bilan ortiriladi.

I. A. Rubakin

O'zgalarning dasturi – maslahat ovozidan boshqa narsa emas.

I. A. Rubakin.

Tirishqoqlik – ilm sari yagona yo'ldir.

B. Shou.

Fanda eng ishonchli ko'makchi o'z aqling, tafakkuringdir.

J. Fabr.

Bilim yodlash bilan emas, fikrlash bilan orttirilgandagina haqiqiy bilimdir.

L. N. Tolstoy.

Odamni hech nima tajribadek mulla qilolmaydi.

F. S. Makarenko.

Ko'pni bilgan emas, keragini bilgan dono.

Esxil.

Biron narsani yomon bilgandan ko'ra butunlay bilmagan ma'qul.

Rubliliy Sir.

O'zini bilimdon deydigah nodondan qoch.

Qobus.

Suqrotning donoligi shunda ediki, u bilmaganini bildim demasdi.

Sitseron.

Tafakkurni nobud etgan odam uch karra qotildir.

R. Rolan.

Til boyligi tafakkur boyligidir.

N. M. Karamzin.

Millatning dahosi, aqli va ruhiyati maqollaridan bilinadi.

F. Bekon.

Xalqning tiliga hujum – uning qalbiga hujumdur.

G. Laube.

Tiling birla ko'nglingni bir tut.

Navoiy.

Ko'ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitin so'z bil.

Navoiy.

Har qanday benatija so'z bema'ni va quruq bo'lali.

Demosfen.

Oqil chin so'zdin o'zgani demas, Ammo barcha chinni ham demak
– oqil ishi emas.

Navoiy.

Tilga ihtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

Navoiy.

So'z gul – ish meva.

Al – Xorazmiy.

Til hammaga, donolik esa kamdan – kam odamga nasib etadi.

Katta Katon.

Ehtiyot bo'lib gapirish – notiqlikdan ham ustun.

F. Bekon.

Agar uzayib ketsa, eng yaxshi nutq ham jonga tegadi.

Paskal.

ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiya"si.
2. O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 1993-yil.
3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar". Toshkent, 1995-yil.
4. "O'qishda ham uqish bor". Tuzuvchi. T. Tog'ayev. Toshkent. 1998.
5. Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev."O'zbek tilining imlo lug'ati". Toshkent, 1995-yil.
6. Y.Abdullayev."Hamroh".Yangi alifbo va imlodan qo'llanma. Toshkent, 1996-yil.
7. Y.Abdullayev."Sovg'a".Yangi alifbo va imlodan qo'llanma. Toshkent, 1996-yil.
8. Y. Abdullayev Yangi alifbo va imloni o'rganish dasturi. T.: 1996-yil.
9. M.G'ulomov "Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish". T.: 1996-yil.
- 10.N.Maxmudov, B.To'xliyev, R.Abdulahadova. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosini o'rganish" kursining dasturi. Toshkent, 1996-yil.
11. Q.Abdullayeva va b. "Savod o'rgatish metodikasi ". T.: 1996-yil.
12. R.Jo'raqulov."Qaytar dunyo". Samarqand, 1997-yil.
13. M.G'ulomov,"Husnixat". 3-sinf uchun. Toshkent, 1998-yil.
14. S. Rizayev."Yangi alifbodan saboqlar". Toshkent, 1999-yil.
15. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. T.: 1999-y.
16. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. T.: 1999-y.
- 17.Y.Abdullayev, Sh.Yo'ldoshova "Yangi alifbo va imloni o'rganamiz. Toshkent, 2000-yil.
18. Йўлдошев С. Арасту. Тошкент «Ўқитувчи». 1996.
19. Alisher Navoiy, Nodir hikoyatlar. Toshkent. 2000.
20. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент. 2000.
21. Аминов М. ва б. Иш юритиш (амалий қўлланма). Т.: 2000.
22. Жумахўжа Н. Истиқлол ва она тилимиз. Тошкент. 1998.
23. «Х» ва «Ҳ»лик сўзларнинг имло луғати. Асрор Самад таҳририда. Тошкент. 1993.
24. Йўлдошев М., Чўлпон сўзининг сирлари. Тошкент. 2002.
25. Маҳмудов Н., Тил. Тошкент. 1998.
26. Abdullayev Q. Diktantlar to'plami. Toshkent. 1998.
27. Nutq o'stirish bo'yicha qo'llanma. (O'z R Prezidenti I.A.Karimov asarlari misolida). Toshkent. 1998.

28. Жуманиёзов Р. Ҳарфлар тилга кирганда. Тошкент. 1995.
29. Abdullayev Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. 1996-y.
30. G'lomov M. Husnixat (medik qo'llanma). Toshkent. 1997-y.
31. Qoriyeva, Rizayev S. Yangi o'zbek- lotin yozuvini o'rganamiz. Toshkent. 1998.
32. Лотин ёзуви асосидаги янги имло ва ўзбек тилини ўқитиш муаммолари: ечимлар, вазифалар. (Республика илмий-амалий семинари маърузалари). Тошкент., 2002.

118 – buyurtma 300 nusxa. Hajmi 5,1 b.t.
2005 yil 31 oktyabrda bosishga ruxsat etildi.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida
nashr qilindi.

5000

010 821/47

81.6
Y